

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



ALEKSANDR POPOV
(1859-1906)

2022
IYUL
№42



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz
www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 42-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 50 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Эргашев Омонбой Тургунбоевич ИНЦЕНИРОВКА УСТИДА ИШЛАШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ БАДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	8
2. Xo'jayeva Gulsara Yuldoshovna, Avezmuratova Xaitgul Jumamuratovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING TARKIBIY QISMLARI	11
3. Ismoilova Shahla Atanazarovna KIMYO FANINI O'QITISHDA YANGI DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI.....	13
4. Jumabayeva Shohista Raxmatullayevna, Xaitova Obidaxon Otabekovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI MOHIYATI	14
5. Jumabayev Samandar Israyilovich MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA AKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	16
6. Jumanazarova Feruza Bahromovna KIMYO FANINI O'QITISH METODIKASI	18
7. Jumayeva Xurshida Nizomiddinovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	20
8. Karimova Dildor Zaripovna KIMYO FANIDAN O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISH UCHUN INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	22
9. Malikova Xamida Kamalovna, Baltayeva Laylo Yusupboyevna BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING YANGICHA USULLARI.....	24
10. Masharipova Oliyajon Ro'zmetovna BOLA TARBIYASIDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'RNI	26
11. Quziyev Umidbek Bardiyeich, Masharipova Qlara Raximovna O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	27
12. Rayimova Dilbarxon Kochkarbayevna OILADA AXLOQIY TARBIYANING SHAKLLANTIRISH	29
13. Sh.Daminova BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA XATOLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	31
14. Sidiqov Sardorbek Zafarjon o'g'li YOSHLAR TARBIYASIDA OILA PSIXOLOGIYASINI O'RNI VA AHAMIYATI.....	33
15. Sotvoldiyeva Barhayot Numonjonovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O'QITISHNING AFZALLIKLARI.....	34
16. Seitova Zuhaxon Pirjanovna, Turkbenbayeva Durdona INSON KUCHI, AQL- ZAKOVATI BILAN YARATILGAN DUNYO.....	36
17. Xalilova Rohatoy Egamovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMMUNIKATIVLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.....	38
18. Xojiyeva Muazzam Toxirovna MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TARBIYALASH.....	40
19. Абдуллаева Дилфуза Бабахановна РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.....	42

20. Абдурахмонова Шоҳидахон Абдуқодировна МАТЕМАТИК МАСАЛАЛАР ЕЧИШ ОРҚАЛИ БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАРНИНГ АМАЛИЙ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	44
21. Каримова Мохигул Абдухоликовна МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲАРАКАТЛИ ВА МИЛЛИЙ ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ	46
22. Шодиев Неъматжон Садирович МУҲАНДИСЛИК ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ ЛОЙИХАВИЙ-КОНСТРУКТОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛА- НИШ	48



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ИНЦЕНИРОВКА УСТИДА ИШЛАШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ БАДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Эргашев Омонбой Тургунбоевич
Наманган давлат университети
“Педагогика назарияси ва тарихи”
кафедраси таянч докторанти,
E-mail: omonboy.ergashev@mail.ru
Телефон: +998933958099

Анотация. Мақолада маданий тадбирларни ташкил этишда бадий асарлардан тайёрланган инсценировкалар орқали талабаларнинг бадий тафаккурини ривожлантириш омиллари ва инсценировка жараёнида назарий маълумотлар, кўрсатмалар ҳамда амалий тавсиялар билан ёритилган.

Калит сўзлар: инсценировка, бадий тафаккур, ижодий қобилият, маданий-маърифий тадбирлар.

Инсон бадий тафаккури илмий ва ижодий салоҳият орқали кенгайиб боради. Бугунги кунда Ўзбекистон ёшлари маънавиятини янада ривожлантириш, ижодий баркамоллигини таъминлаш, ҳар қайси соҳада креативликни оширишга қаратилган эътибор ошиб бормоқда.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлар, ёшларга бўлган эътибор ва уларга берилаётган имкониятлар натижасида ёшларнинг онгу тафаккури, дунёқараши ўзгармоқда. Президент Ш.Мирзиёев ўз нутқларида – “Ёшлар – Ўзбекистоннинг энг катта бойлиги, бебаҳо хазинаси” [1] деб таъкидлаганлари бунинг яққол мисолидир.

Ёшларнинг ижодий тафаккури шаклланишида миллий тарбиянинг ўрни ниҳоятда зарур. Миллий маданиятни янада ривожлантириш, янги Ўзбекистоннинг янги тарихини яратиш, моддий ва номоддий маданий мерос дурдоналарини сақлаш ва тарғиб этиш, халқ оғзаки ижодиёти ва ҳаваскорлик санъатини янада оммалаштириш, юртимизнинг жаҳон маданий маконига фаол интеграциялашувини таъминлаш, маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантиришга қаратилган тизимли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Олиб борилаётган маънавий-маърифий ислохотлар натижасида маданият ва санъатнинг ўрни тобора ошиб бормоқда. Халқимиз, айниқса, ёшларимиз маънавиятини бойитиш, бадий тафаккурини ривожлантириш, улар онгига миллий истиқлол ғояларини сингдириб бориш масалалари санъатнинг ҳар бир турларида ўз аксини топа бошлади.

Маданият ва санъат, хусусан, театрлаштирилган маданий тадбирларда ҳам миллийлик, халқчиллик, улуғворлик, серкирралик ва мазмундорлик сифатлари юксалмоқда. Шу сабабдан сўнгги вақтларда Республикаимизнинг барча олий ва ўрта махсус таълим масканларида талабаларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этишга қаратилган чора-тадбирлар сони ортиб бормоқда.

Бу эса ўз навбатида маданий тадбирларнинг савияси юқори даражада ташкил этилиши масъулиятини юклайди. Талабаларнинг бадий тафаккурини шакллантиришга қаратилган маданий тадбирларни ташкил этишда кўпроқ бадий асарлардан тайёрланган инсценировкалар ёрдамида фойдаланилса янада мақсадга мувофиқ бўлади.

Маданий тадбирларни ташкил этишда кўпинча драматик асарларга мухтожлик сезилиб қолади. Аммо, ўтказиладиган мавзуга мос тайёр драматик асарнинг йўқлиги тадбир ташкилотчиларини ўйлантириб қўяди. Сахналаштириш учун асар танланаётганда фақат драматик, тайёр пьесаларга эмас, балки адабиётнинг барча турларига мурожаат қилиш ҳам мумкин. Буни бадий асарларни инсценировка қилиш орқали бажарса бўлади. Кўпгина



драматик бўлмаган асарларни сахнага қўйишга эҳтиёж туғилганда инсценировка усули қўл келади [4].

Инсценировка мавзусига тўхталганимизнинг боиси - кўпгина ҳолларда олийгоҳлар, ташкилотларда «заказ» билан сценарийлар ёзишга тўғри келади, масалан, институтлараро «Қувноқлар ва зукколар» кўрик танловини олайлик. Кўрик танловда берилган шартлар учун тайёр драматик асарлар деярли йўқ. Бундай ҳолатларда адабий асарларни инсценировка қилиш усуллари таяниш мумкин. Ёки Алишер Навоийнинг таваллуд топган кунига бағишлаб, «Шеърят мулкининг султони» деб номланган тадбир ўтказилиши керак бўлса ҳам ифодалашнинг турли воситаларидан фойдаланиб, инсценировка қилинган ҳолда сценарийлар яратишга тўғри келади.

“Инсценировка” сўзи лотинчадан олинган бўлиб, бирор асарни сахнавий қилиб ўзгартириш, сахнага қўйиш учун мослаштириш деган маънони билдиради (Ўзбек тилининг изоҳли луғати). Инсценировкада асар сахнага мослаштирилиб, иложи борида воқеалар ҳаракати бир жойда ўтишини таъминлаб, монолог ва диалог шаклига кўчирилади.

Албатта воқеалар ривожини композицион йўналишда давом этишини таъминлаш керак [2].

Ж.Маматқосимовнинг “Оммавий байрамлар режиссурасида театрлаштириш усуллари” китобида инсценировкага қўйиладиган таъриф берилган.

Инсценировка - “сахнада” сўздан олинган бўлиб, икки маънода қўлланади.

1. Драма шаклида ёзилмаган адабий асарни сахнада қўйишга мослаб қайта ишлаш, бундай асарни радио, телевидение ёки театрда қўйилишига қараб, радиоинсценировка, телеинсценировка деб юритилади. Инсценировка адабий асарнинг ўз муаллифи томонидан ҳам бошқа шахслар томонидан ҳам амалга оширилиши мумкин. Адабий асар инсценировка қилинганда, сахнага мослаштириб баъзан унинг сюжетида ўзгартиришлар киритиш мумкин. Инсценировка XIX-XX асрларда айниқса кенг тараққий этди. Бунга А.Қаҳҳор, Ғ.Ғулом, Ҳ.Олимжон, Т.Малик, П.Қодиров, Ў.Умарбеков каби ижодкорларнинг кўплаб асарлари мисол бўла олади.

2. Тарихий воқеаларнинг эпизодлари асосида 1920 йилларда юзага келган ва кенг тарқалган оммавий-ташвиқий театр шаклларида бири.

Театрлаштирилган кичик насрий асарлар - сценарий мазмунини бойитади. Ҳатто томошабинга ҳавола этилаётган воқеа, мавзу ғояни қизиқарли воситаси бўлиб хизмат этади.

Инсценировка шартли равишда уч турга ажратишимиз мумкин. Улар қўйиладиган:

- **Оддий инсценировка** - бунда кичик бир адабий асар олинади ва асар мазмунидан келиб чиқиб драматик шаклга келтирилади.

- **Йиғма инсценировка** - бунда бир қанча кичик ҳажмдаги бадиий асарлар олиниб, уларни мазмунан ва ғоявий кўприкчалар орқали бир-бирига боғлаб драматик асар шаклига келтирилади.

- **Мураккаб инсценировка** - бунда бирор бир катта бадиий асар олиниб, ундаги воқеа-ҳодисаларни бир сахнага мослаштириб драматик асарга айлантирилади. Юқорида таъкидлаб ўтилган “Муқаддас аёл” деб номланган театрлаштирилган томошада Ч.Айтматовнинг «Асрга татиғулик кун» романидан «Найман она қиссаси» инсценировкаси берилган. Шуни таъкидлаш лозимки, мазкур инсценировка жараёнида қирғиз халқининг урф-одатларини, кийинишини, умуман қирғиз менталитетини ўрганишга ҳам тўғри келди [3].

Инсценировкага мурожаат қилинганда қўйиладиган ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

1. Асар тўлиқ ўқиб чиқилиб, унинг мазмуни ва моҳияти ўрганилади.
2. Асардаги муаллиф томонидан берилган сўз, таърифлар, ҳуллас ифодалаш кахрамонларга бўлиб берилади.
3. Асардаги кахрамонлар аниқланади, уларга сўз, матнлар бўлиб берилади.
4. Монолог ва диалогларга ажратилади.
5. Сахналаштиришнинг барча қонуниятларига таянади [4].

Инсценировка қилинаётганда асарнинг ички мазмунини тўғри тушуниш керак. Акс ҳолда инсценировка қилинган асарнинг мазмуни бузилиши мумкин. Қандай матн қўлланилмасин, бадиий жиҳатдан бир бутун драматургик қоидаларга жавоб берадиган асарни яратиш учун соҳавий инсценировкасини амалга ошириш лозим.

Ижод инсондан мунтазамликни талаб этади. Талаба-ёшлар ижодий тафаккурини ривожлантиришнинг истиқболлари келажакда етук бадиий-ижодий асарлар туғилиши



билан бирга, ўзбек адабиёти ва санъати тамаддунига ҳам ҳисса қўшади.

Хулоса қилиб айтганда, инсон руҳияти ва ижодий тафаккур маърифат уруғлари билан озиқланади. Технологиялар ривожланган асримизда китобхонликка бўлган эътибор, маънавият ва маърифат баркамол куч эканлигини англаш, ёшлар ижодий тафаккурини етук санъат асарлари орқали ривожлантириш келгусида улкан мақсадлар эшигини очади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. Олий Мажлисга Му-рожаатномаси ҳамда Ўзбекистон ёшлар форумида сўзлаган нутқидан иқтибослар [Матн]: публицистика. – Тошкент: ТАСВИР нашриёт уйи, 2021. – 52 б.
2. Ф.Аҳмедов. “Оммавий байрамлар режиссураси асослари”. Т.: “Алоқачи”. 2008.
3. Жаҳонгир Маматқосимов. Оммавий байрамлар режиссурасида театрлаштириш усул-лари. – Т.: 2008. – 113 б.
4. Sayfullayev B.S., Rustamov V.K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 180 b.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING TARKIBIY QISMLARI

**Xo'jayeva Gulsara Yuldoshovna,
Avezmuratova Xaitgul Jumamuratovna**
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari
xujayevagulsara@gmail.com/91-987-81-88

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik takt, pedagogik texnika, kommunikativ kompetentlik.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An'anaviy dars shaklini saqlabqolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi, o'qituvchi darsni qanday metodlar asosida olib borsa ham pedagogik mahoratli bo'lishi lozim. Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeyi, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning bir qator tarkibiy qismlari mavjud:

- | | |
|---------------------------------|--|
| 1. Pedagogik bilimdonlik. | 7. Pedagogik qobiliyat. |
| 2. Pedagogik muloqot madaniyati | 8. Pedagogik relaksasiya. |
| 3. Pedagogik takt. | 9. Pedagogik texnika. |
| 4. Nutq texnikasi. | 10. Kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati. |
| 5. Pedagogik madaniyat. | 11. Pedagogik ijodkorlik. |
| 6. Pedagogik odob. | 12. Pedagogik tajriba. |

Pedagogning kommunikativ kompetentligi uning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi. Ta'lim jarayonida pedagogning kommunikativ kompetentligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- pedagogning alohida o'quvchi bilan muloqoti; -pedagogning guruh bilan muloqoti;
- pedagogning alohida o'quvchi orqali guruh bilan muloqoti;
- pedagogning guruh orqali alohida o'quvchi bilan muloqoti.

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta'sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Agarda noto'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot o'quvchida qo'rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yorining buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilarda o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish ortadi. Muloqot jarayonida o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchi shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi o'quvchining o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashinishini ta'minlaydi. Pedagog va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishi uchun



sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog o'quvchilarning eng yaqin maslahatchisi, yo'l boshchisi va rahbariga aylanadi. Muloqot chog'ida o'quvchilar tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o'z oldilariga hayotiy maqsadlarni qo'ygan holda doimo olg'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Pedagog rahbarligi yoki uning yo'l-yo'riqlari, ko'rsatmalariga asosan o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasi namoyon bo'ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo'lgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o'ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda o'quvchilarning o'zlari ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo'ladi va o'quvchilarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri va aniq uyushtirishga yo'naltiradi. Pedagogik muloqotning muhim vazifalaridan yana biri – pedagog va o'quvchilarning o'zaro hamdard bo'lishlari. Pedagog amaliyot muloqotni bir necha turga ajratishi mumkin:

- 1) o'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot;
- 2) o'zaro do'stona munosabatga asoslangan muloqot;
- 3) muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot;
- 4) qo'rqitish, tahdid qidishga asoslangan muloqot;
- 5) hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan muloqot.

Muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubini tanlaganligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev J., "Ilg'or pedagogik texnologiya". – Toshkent, Fan-2004
2. Hamidov A. "Yangi pedagogik texnologiyalar". – Toshkent-2004.
3. Haydarov B. va b.q. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". Toshkent- 2002.



KIMYO FANINI O'QITISHDA YANGI DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Ismoilova Shahla Atanazarovna

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
kimyo fani yetakchi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada innovatsion usullarni qo'llashda dars o'qitilganda sinfda qoloq, mavzuni o'zlashtirmaydigan o'quvchini ham o'ziga jalb qilishi va darsni juda qiziqarli o'tishiga qaratilgan ma'lumotlar qamrab olgan.

Kalit so'zi: o'yin, o'quvchi, massa, kimyo, tezlik, vaqt, atom, formula, hajm.

Innovatsiya — lotincha so'z bo'lib, “yangilik kiritaman, tatbiq etaman, o'zgartiraman” degan ma'nolarni bildiradi. Keng ma'noda qaraganda ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish – bu pedagogik innovatsiyadir.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab namunaviy o'quv mashg'ulotlarini o'qitish ta'lim – tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak. Bugungu kunda Ozbekistonda uzluksiz ta'lim ta'lim tizimida 80 ga yaqin innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanilmoqda.

Piramida o'yini - bu o'yinda o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, piramida shaklidagi jadvalga kimyoviy kattaliklarning nomini, kimyoviy hodisalarni harflar ortib borishi tartibida yozing degan topshiriqni bajaradilar. Qaysi guruh g'olib chiqsa rag'batlantiriladi. Bu o'yinga 3-4 daqiqa vaqt yetarli bo'lib umumlashtiruvchi darslarda foydalanish mumkin

- | | |
|----------------|---------|
| 1.Yonish | 4.Tuz . |
| 2.Cho'kma | 5.Bosim |
| 3.Ishqorlanish | 6.... |

O'yla, izla, top. Bu o'yinda o'quvchilarga birqancha kimyoviy kattaliklarning belgilari beriladi, ulardan foydalanib, formulalar yozdiriladi, Ikkala guruh bir – birini kamchiliklarini topadilar. Ushbu o'yinni dars davomida 4-5 daqiqa ichida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Matn yozish” Bunda esa berilgan so'zlardan foydalanib, 6 ta, 10 ta, 12 ta gap tuzish lozim. Matn mazmunini o'qitilib, ilmiy aniq faktlar keltirilishiga e'tibor qaratiladi. Masalan :

Bu so'zlardan foydalanib 6 ta gap yozing deb topshiriq berish mumkin.

O'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh bo'lib ishlashga imkon beradi. Bunday usullardan uyga vazifa so'rashda va yangi mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng ham foydalanish mumkin.

“Kubiklar o'yini”. Oddiy kubiklar bo'lib yon tomonlariga formulalarning, kimyoviy tushunchalarning o'lchov birliklari va boshqalarning bo'laklari bo'ladi. Ularning soni 6 ta bo'lishi mumkin. Ular to'g'ri birlashtirilsa, aniq formula va hodisa tasvirlangan rasm hosil bo'ladi. Kubikni uyga vazifa sifatida ham berish mumkin. Bunda kubikning bir tomonida rasm qo'yiladi, har bir tomoni uchun topshiriqlar beriladi.

- 1- tasvirlang – hajmi, shakli.
- 2- Taqqoslang – nimaga o'xshaydi ?
- 3- O'xshating – sizga nimani eslatdi ?Qayerda ko'rgansiz ?
- 4- Tashkil qiling – qanday va nimadan qilingan? Nimalardan tashkil topgan?
- 5- Ishlating – qayerda va qanday ishlatish mumkin ?
- 6- Foydali va zararli tomonlari qanday ?

Darslarda didaktik o'yinlardan foydalanish, o'quvchilarni ahillik, birdamlikka va sinfda do'stona muhitni shakllantirishga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tadbiq etilsagina, ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.M. Metelskiy. Kimyo imtihonlar uchun savollar va javoblar. Samarqand 2007.
- 2.Э.Т.Оганесян. Руководство по химии поступающим в вузы,М.Высшая школа, 1996.
- 3.Г.П.Хомченко. Олий ўқув юртларига кирувчилар учун кимёдан қўлланма. 1984 й.
- 4.Safo O. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.: O'qituvchi. 1997.
- 5.Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2011.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI MOHIYATI

**Jumabayeva Shohista Raxmatullayevna,
Xaitova Obidaxon Otabekovna**

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari
jumabayevashohista@gmail.com/90-430-10-16

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiya jarayonining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: intellektual salohiyat, pedagogik jarayon, maxsus dastur

“Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”,- deb aytilgan fikrlarga asoslanib, ta'lim va tarbiya tushunchalarini o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini, ya'ni yaxlit holda tushunish zaruriyatini inobatga olgan holda ularning mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tamiz. Insonga tug'ma ravishda xatti-harakatlarning hech qanday: na ijtimoiy, na noijtimoiy dasturlari berilgan emas. Har bir inson uchun, fazilatlarining shakllanish jarayoni amalda noldan boshlanadi. Shuning uchun ham ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarning maqsadi, mazkur jarayonda yaratiladigan shart-sharoitlar inson shaxsini shakllantirishning qonuniyatlarini inkor etmaydi.

Insonning rivojlanishida u yashayotgan muhit, unga ta'lim-tarbiya berishda ta'lim muassasasi jamoasi munosabatlari, vujudga kelayotgan ta'limiy muhit va pedagogik jarayon ishtirokchilarining shaxsiy sifatлари, xatti-harakati, dunyoqarashi, tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya – shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyat, u shaxsning tarbiyalan ganlik darajasi mezoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga tashqi muhitning ta'sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimningdir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradi. U faqat o'tmish merosxo'ri sifatida ijtimoiy hayotga qo'shilib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi. Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning tajribasini egallab borish jarayoni bo'lib, u insonlar rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy xislatlari shakllanishiga zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Ayrim hollarda ta'lim, tarbiya va rivojlanish o'rtasida o'zaro bog'liqlik yo'qdek tuyulsa-da, aslida ular o'rtasida bog'liqlik juda murakkab va ahamiyatlidir. Inson shaxsi ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, rivojlanish darajasi uning shaxsiy xislatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'zgartiradi, shakllantiradi. Ilmiy asoslarda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsning rivojlanish darajasini tezlashtiradi va shakllangan shaxsiy xislatlar, dunyoqarash, fikrlash, tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek unda shakllangan qobiliyat yana ta'lim-tarbiya jarayoniga qayta ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda insonning butun hayotida bu ta'sir va aks ta'sirlar o'zaro bir-birini to'ldirib, ta'minlab boradi. Hayotda “tarbiya” tushunchasi juda keng qo'llaniladi. Tajriba o'rgatish, tarbiyalash ommaviy axborot vositalari yordamida, san'at orqali hamda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bularni amalga oshirishda mas'ul shaxsning ma'lumoti muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot shaxsning tushunchasi, dunyoqarashi, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini ifodalovchi tushuncha bo'lib, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizim hisoblanadi. Maxsus tashkil etilgan ma'lumot beruvchi tizim – bu ta'lim-tarbiya muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar bo'lib, ular maxsus dasturlarga asosan tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Ma'lumot aniq bir yoshdagi shaxslarda bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligini, intellektual qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, intellektual salohiyati qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi. Qachonki ma'lumoti to'g'risida gapirilganda uning ma'lumotlilik tushuniladi. Ma'lumotlilik – shaxsiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, bilim, o'zlashtirganligi va ulardan foydalanish hamda ular yordamida yangi bilim-ko'nikmalarni



egallab, to‘ldirib borish qobiliyatlari tushuniladi.

Ma’lumotli shaxsni shakllantirishda nafaqat tarbiya jarayoni, balki shaxsda bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari mavjud bo‘lib, bu jarayonlarni tashkil etish negizida ta’lim jarayoni o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida ta’lim va tarbiyaning o‘zaro birligini ifodalaydi.

Ta’lim – tajribalar almashinish jarayoni bo‘lib, rejali ravishda amalga oshiriladigan “o‘qituvchi-o‘quvchi” muloqoti, uning natijasida ma’lumot, tarbiya va rivojlanish amalga oshadi. Ma’lumot olish tizimida ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi, ya’ni ularning o‘zaro birligi asosiy rol o‘ynaydi. Maqsadiga ko‘ra u ikki asosiy qismdan iborat: tajribalarni o‘rgatish (o‘qitish) va uni o‘rganish (o‘qish). O‘qitish – milliy qadriyatlarni, hayotiy tajribalarni, fan va texnika sohalaridagi yutuqlarni yosh avlodlarga o‘rgatishni ta’minlaydi.

O‘qish – milliy qadriyatlarni, fan-texnika sohasidagi yutuqlarni, tajribalarni o‘rganish, tushunish, tafakkurning rivojlanishi, mustaqil fikrlash va ulardan hayotda foydalanish uchun ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. O‘qitish – pedagogik faoliyat (ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari, pedagoglar faoliyati), o‘qish – o‘quvchi-talaba (o‘rganuvchi, talaba) faoliyati.

Rivojlanish obyektiv jarayon bo‘lib, tashqi va ichki boshqariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatidan fiziologik va ma’naviy shakllanish, ya’ni, shaxsning fazilatlarini, sifat va xulqlarining shakllanishi, tushunchalarning chuqurlashishi, kengayishi, osondan - qiyinga, oddiydan - murakkabga, mavhumdan - bilishga, oddiy hayot kechirish shakllaridan - oliy faoliyatga o‘tish jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Xoliqov. “Pedagogik Mahorat”, T-2011
2. Ishmuhammedov M, Yo‘ldashev “Ta’lim va tarbiya jarayoni uzviyligi”. T-1998
3. ziyonet.uz, eduportal.uz



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA TA’LIM TARBIYA JARAYONIDA AKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jumabayev Samandar Israyilovich

Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi,
(+998933065363, samandar23021996@umail.uz)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya jarayonida AKTDan foydalanishning ahamiyati, ularning ishlash funksiyalari, imkoniyatlari haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: AKT, maktabgacha ta’lim, innovatsiya, IT-bogʻcha, ilk qadam, multimedia, zamonaviy ta’lim-tarbiya.

Hozirgi kunda butun jahonda jadal rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari, ta’lim tarbiya jarayoniga ham oʻz tasirini oʻtkazmay qolamadi. XXI asr axborot texnologiyalari asri. Uchichi ming yillik oʻzi bilan dunyoga yangi bilimlar yangi kashfiyotlarni olib keldi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi mobil texnologiyalar va gadjetlarning rivojlanishiga ham olib keldi. Oʻtgan asrda tugʻilgan bolalarda kompyuter texnikasi haqida nazariy bilimlar juda sodda holda shakllangan boʻlsa, hozirda dunyoga kelayotgan bolalar toʻgʻridan-toʻgʻri mobil texnologiyalar qoʻrshoviga tushmoqda. Bu holat oʻzining katta imkoniyatlari va foydali taraflari bilan oʻz navbatida juda havfli tomonlarini ham namoyon etmoqda. Axborot huruji, feyk habarlar, taxdidlar, zoʻravonliklar va shunga oʻxshash koʻplab ishonchsiz maʼlumotlar global tarmoqda son sanoqsiz. Endilikda hammasi avvalgidek boʻlmaydi. Bu shiddat bilan oʻzgariyotgan zamon talabi. Shu oʻrinda ta’lim va tarbiya metodlari ham rivojlanishi kerak. Zamonaviy pedagoglarga ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarga mobil qurilmalardan, internet saytlaridan va har xil gadjetlardan foydalanishni taqiqlab qoʻyish oʻrinsizdir. Balki, mazkur ilm-fan va texnika yutuqlaridan oqilona va toʻgʻri foydalanishni oʻrgatish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, yurtimizda uzluksiz ta’limning barcha jabhalarida axborot texnologiyalarining soʻngi yutuqlaridan foydalanilayotganiga guvoh boʻlamiz. IT-maktab, IT-universitet, IT-park va hokazolar, bunday yangicha talqindagi soʻzlarni eshitmagan kishi topilmasa kerak. IT- bu “information technology” ya’ni axborot texnologiyalari ma’nosini anglatadi. Bu iboraning ta’lim maskani nomi oldiga qoʻshib aytilishi, mazkur dargohning ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsion gʻoyalar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etilganligini anglatadi. IT-bogʻcha iborasiga alohida toʻxtaladigan boʻlsak, bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida davlat talablari asosida oʻqitishning noanʼnaviy, innovatsion, axborot kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan, rivojlangan davlatlarning mazkur sohada erishgan yutuqlarini tadbiq qilgan holda tashkil etish koʻzda tutiladi. Bunda bolalarga ta’lim berishda interktiv doska, sensorli panel, planshetlar, robototexnikalar va mobil qurilmalardan foydalaniladi. Masalan, “Ilk qadam” variativ oʻquv dasturi asosida maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarga harflarni oʻrgatishda oddiy koʻrgazmali qurollardan foydalanishdan koʻra, katta sensorli panelda animatsion holatda (*harf harakatlanadi va multipikatsion shaklda kuylaydi, raqsga tushadi*) bolalarga taqdim etish orqali ularning koʻrish, eshitish va tasavvur qilish qobiliyatlarini birdek rivojlantirib borish mumkin. Yoki, “Oʻrmon hayvonlari” mavzusini yoritib berishda oʻrmon hayvonlarining animatsiya shaklida harakatlanishini va bolalarni sodda animatsion test koʻrinishida oʻrmon hayvonlarini uy hayvonlaridan ajrata olishini sinab koʻrish mumkin.

Yuqoridagi innovatsion yechimlarni qoʻllashda eng avvalo ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchilarda imkoniyat va sharoitlar boʻlishi kerak. Prezidentimizning ta’lim tizimini rivojlantirishda nodavlat sektor ulishining oshirilishiga ahamiyat berishi bu jabhani yanada rivojlantiradi. 2018 yil 5 aprel kuni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada ragʻbatlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3651-son qarori mabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchiligi asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish imkonini berdi. Mazkur qaror orqali nodavlat tashkilotlarning ta’lim tarbiya jarayonlarini zamonaviy uslublarda olib borishlariga zamin yaratiladi.

Zamonaviy binolar, zamonaviy bolalar, zamonaviy tizimlar, zamonaviy texnologiyalar qatorida zamonaviy kadrlar tayyorlash ham katta muammolarda biri hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya berib kelayotgan pedagoglarni, zamon talablariga



to‘la javob bera oladi deyolmaymiz. Sababi, ularning bolalarga bilm berishda zamonaviy AKT vositalaridan foydalanaolish ko‘nikmasining pastligida deb hisoblayman. Bu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida pedagoglar uchun kasbiy mahorat seminarlari, AKTdan ta‘lim jarayonida foydalanish bo‘yicha o‘quv kurslari va malaka oshirish muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalari faninini joriy etish o‘rinlidir. Bunday kurslarda pedagoglarning, ta‘lim tarbiya jarayonida o‘z ijodkorligidan kelib chiqqan holda o‘quv mashg‘ulot qurollari sifatida animatsion multimedia dasturlari yaratishlari mumkin. Buning uchun quyidagi dasturiy vositalardan foydalanish o‘rinlidir:

Autoplay Media Studio - Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun mo‘ljallangan dasturiy vosita. Foydalanishga qulay, oson va tushinarli interfeys.

Camtasia Studio - videoni yozib olish va uni tahrirlash uchun mo‘ljallangan dasturiy vositadir. Mazkur dastur yordamida har hil turdagi video mashg‘ulotlar yaratish imkoniyati mavjud.

Adobe Photoshop – kuchli grafik muharrir dasturi. Ushbu dastur yordamida istalgan dizayndagi rasm chizish, taxrirlash va 3D effektlar yaratish mumkin. Ijodkor pedagoglar uchun juda qo‘l keladi.

Bu kabi dasturiy vositalar va ko‘plab boshqa dasturlardan foydalanish ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarda AKTdan ko‘nikmasini shakillantirish, ta‘lim tarbiya jarayonini yana bir pog‘ona yuqorilashtirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash va ulardan foydalish taraqqiyot poydevoridir – Oriental Renaissance.

ISSN 2181-1784 SJIF 2021:5.423 N.A.Ikromova

2. <https://www.mdo.uz> - sayt materiallaridan olindi.

3. <https://www.lex.uz> - sayt materiallaridan olindi.

4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Camtasia>- sayt materiallaridan olindi.

5. <https://en.wikipedia.org/wiki/AutoPlay> - sayt materiallaridan olindi.

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Multimedia> - sayt materiallaridan olindi.

7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Adobe_Photoshop- sayt materiallaridan olindi.



KIMYO FANINI O'QITISH METODIKASI

Jumanazarova Feruza Bahromovna,

Xorazm viloyati, Shovot tumani

23-maktab kimyo fani o'qituvchisi

Telefon :+998919896337

Shahriyorchahrinov@mail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada kimyo o'qitishning o'ziga xos usullari borasida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *"O'qitish metodi", ko'rgazmali metod, og'zaki metod, amaliy metodlar.*

O'qituvchining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishini ta'minlaydigan optimal usulni tanlashdan iboratdir. O'qitish usuli bu o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi maqsad sari yo'nalgan faoliyati deb tushunsa bo'ladi. Kimyo o'qitish usullari yuzasidan yagona fikr yo'q. Pedagogika adabiyotida a) dogmatik, b) illyustrativ, v) evristik usullar bor. "O'qitish metodi" tushunchasiga har xil ma'no beriladi. Ba'zilar "metod" so'zining tarjimasiga asoslanib - ("yo'l" demakdir) - bu tushuncha bo'yicha o'quvchilarni bilmaslikdan bilimdonlikka olib borsin deyilar. Dogmatik, illyustrativ, evristik metodlar ana shundan kelib chiqqan.

Kimyo o'qitish metodlari turli usullarda olib boriladi. Metod bu «yo'l» demakdir. U dogmatik, illyustrativ, evristik bo'lishi mumkin. O'qitishning dogmatik metodi o'qituvchining materialni og'zaki, ko'rsatma vositalardan foydalanmay, dalil isbotsiz va faqat o'quvchilarni bu materialni takrorlashga va yod olishgagina jalb etish bilan bayon qilishdan iborat. Illyustrativ metod ham tayyor bilimlar metodidir: illyustrativ metod dogmatik metoddan o'quv materialini dalil isbotlar bilan, ko'rgazmali qurollardan foydalanib dars o'tadi. Illyustrativ usuli ham tayyor bilimlar usuli hisoblanadi. Evristik metod esa asosan o'quvchilarning o'zlari qiladigan ish asosida tuziladi, o'quvchining bevosita rahbarligi ostida o'zlari hal etadigan, o'zlaricha kashfiyot qiladilar. Evristik usuli esa o'quvchilarning o'zlari qiladigan ishi asosida tuziladi. ("Evrika" - "kashfiyot" - "topdim" - Arximed). Boshqacha qilib aytganda, "tadqiqot" usuli deb atasa ham bo'ladi.

Kimyo o'qituvchisidan o'quv materialini o'zi ham bayon etishi, o'quvchilarni ham mustaqil ishlashga o'rgatish talab etiladi. Shu talabga asosan kimyo o'qitish metodlari 2 ga bo'linadi: 1. bayon etish metodlari. 2. mustaqil ishlash metodlari.

Maktablarda eng ko'p qo'llaniladigan metodlar:

1. O'qituvchining o'quv materialini bayon etish metodi, bunda so'zlab berish, ma'ruza, suhbatlar, sayohatlar, demonstrasion tajribalar va ko'rsatmali o'qitishning boshqa vositalardan foydalanish.

2. Mustaqil ishlash metodlari-laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, kimyodan masalalar yechish va adabiyot bilan ishlash.

O'qitish metodi nima - o'qituvchining o'quvchilarga bilim va malakalar berishiga, shuningdek, o'quvchilarda dunyoqarash hosil qilishga yordam beradigan vosita va yo'llar majmui o'qitish metodidir. O'qitish metodiga qo'yiladigan talablar:

Normal tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayoni biror universal metoddan emas, balki mavjud metodlarning hammasidan kimyoda foydalanishni talab qiladi. Bu metodlar o'quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi.

O'qitish metodlari guruhlari:

Ko'rgazmali metod: a) obyektlarni natural holida yoki vositali ko'rinishda namoyish qilish; b) kuzatish mustaqil faoliyat turidir; v) sayohat.

Og'zaki metod: a) og'zaki so'z b) hikoya qilib berish, v) tushuntirish, g) tavsiflash, d) suhbat, e) maktab ma'ruzas; j) bosma so'z z) kitoblar va boshqa bosma materiallar.

Amaliy metodlar: a) laboratoriya ishlari va maktab eksperimenti; b) amaliy ishlar; v) mashqlar. O'qitish usullarni yagona bir klassifikatsiyasi bo'lmagani uchun, ular quyidagicha turkumlanadi. *O'quv axborotini berish va qabul qilish bo'yicha.*

Usullar: a) og'zaki bayon qilish (hikoya, suhbat, ma'ruza)

b) ko'rsatmali (illyustratsiya, demonstrasiyalar)

v) amaliy tajribalar (mashqlar, unumli o'quv mehnati).

O'quv ishini boshqarish darajasiga ko'ra.

Usullar: a) o'qituvchi rahbarligidagi o'quv ishi



b) o‘quvchilarning mustaqil ishlari (kitob ustida ishlash, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mehnat topshiriqlarini bajarish)

Dars vaqtida o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni tarbiyalash ham lozim. Tarbiyaviy usullar ham guruhlariga bo‘lingan: Shaxs ongini shakllantiruvchi usullar (suhbat, ma’ruza, munozara, namuna ko‘rsatish). Faoliyatni tashkil qilish va ijtimoiy xulq tajribasini shakllantiruvchi usullar (pedagogik talablar, jamoat fikri, odatlantirish, mashq, tarbiyalovchi mashqlar yaratish). Xulq va faoliyatni taqdirlovchi usullar (musobaqa, rag‘batlantirish, jazolash).

O‘qituvchining o‘quv materialini og‘zaki bayon etish metodikasi

Kimyoni o‘rganishda o‘quvchilarning o‘zlari qiladigan ishlari katta ahamiyatga ega, chunki o‘quvchilarda muhim amaliy o‘quv va malakalar hosil qilinadi. *Kimyo darslarida bayon etish usullaridan*: 1. hikoya (so‘zlab berish) 2. ma’ruza 3. suhbat 4. sayohatdan foydalaniladi.

Qaysi birini qo‘llanilishi o‘quv materialining mazmuniga va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. X. X. Muxitdinov “Kimyo”, darslik, Toshkent: “TDTU”, 2005.
2. Sh.A.Rustamova, K.M.Abdiraimova Kimyo fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma, Toshkent: “ToshTYMI”, 2015.
3. Q.Ahmerov, A.Jalilov, A.Ismoilov. Umumiy va anorganik kimyo, Toshkent 2003.



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Jumayeva Xurshida Nizomiddinovna
Navoiy viloyati Xatirchi tumani 38-maktab
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada ona tili va adabiyot darslarida interfaol usullar-dan foydalanish bo'yicha tavsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: konseptual jadval, charxpalak, metafora, metonimiya,

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi. Quyida ona tili va adabiyot darslarida qo'llanadigan usullardan bir nechtasini taqdim etishni joiz topdim.

“Konseptual jadval” usuli. Bunda so'z birikmasining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi		
Ta'riflar	Namuna	Xususiyatlar
Mustaqil so'zlarning o'zaro shaxs-sonda moslashishi moslashuv deyiladi.	-mening vatanim -bizning vatanimiz	-qaratqich kelishigi qo'shimchasini oladi. -shaxs-sonda moslashadi.
Tobe so'zning hokim so'z talab qilgan qo'shimcha yoki ko'makchini olib kelishi boshqaruv deyiladi	-maktabdan chiqmoq -g'ayrat bilan ishlamoq	-tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarini oladi. -ko'makchilar bilan birga keladi.
Mustaqil so'zlarning grammatik vositalarsiz, faqat ma'no orqali bog'lanishi bitishuv deyiladi.	-kuchli ovoz -yurgan poyezd	hech qanday grammatik vosita olmaydi.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin:

Mavzu: So'z ma'nosining ko'chish usullari.

Vazifa: Berilgan gaplardagi ma'no ko'chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “*” belgisini qo'ying.

№	Misollar	Metafora	Metoni-miya	Sinek-doxa	Vazifa-doshlik
1	Zal oyoqqa turdi.		*		
2	Mungli kuy yurakni tinar edi.	*			
3	Besh qo'l barobar emas.			*	
4	Sizning to'ringizda buyuk bobokalonlarimiz qoni oqmoqda.				*
5	Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar.	*			
6	Mabodo “Besh bolali yigitcha” kelmadimi?		*		



“Ma’lumotnoma” usuli. Bunda o’quvchilar rasm asosida so’z birikmasi tuzadilar va bog’lanishiga ko’ra aytadilar.



- Yashash joyi:
- Yashash tarzi:
- Oziqlanishi:



- Yashash joyi:
- Yashash tarzi:
- Oziqlanishi:

“Tovushli diktant” usuli. O’tkazish tartibi. O’quvchilar daftarlariga so’zlarni yozib, yodlab olishlari kerak. (*tovushlar orasidagi intervall-2 soniya*).

(Z), (.I), (N), (A).

(Z), (A), (N), (J), (I), (R).

(I), (Ch), (A), (M), (I), (Z).



(B), (A), (N), (A), (N).

(B), (A), (L), (A), (N), (D).

(Z), (A), (N), (J), (I), (R).

(Yo), (Z), (A), (M), (I), (Z).

“Xira oyna” usuli. O’quvchilarga “Xira oyna” tarqatmalari tarqatiladi. Ular matn yoki bayon yozish davomida tushunmagan va bilmoqchi bo’lgan ma’lumotlarini tarqatmaning xira tomoniga, oynaning tiniq tomoniga tushungan va bilgan ma’lumotlarini yozib beradilar.



“Matematik” usuli. O’quvchilarga usul sharti tushuntiriladi. Shu sonlarni so’z bilan yozib, joy, hayvon va ovqat nomlarini topishlari kerakligi aytiladi.

Uchtepa tumani - 3 raqami va tepalik rasmi. Tortko’z - 4 raqami va ko’z rasmi.

Beshbarmoq - 5 raqami va barmoq rasmi.

Oltiariq tumani - 6 raqami va ariq rasmi.

Sakkizoyoq - 8 raqami va oyoq rasmlari

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fani o’quvchilarning nutqi o’sishida, mustaqil fikrlashida asosiy vosita hisoblanadi. O’quvchilarimizni yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, ijodkor va eng asosiysi, savodxon qilib tarbiyalash har bir o’qituvchining vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O’qituvchi nimalarni bilishi kerak?” (O’quv-metodik qo’llanma Toshkent – 2016)
2. Darsliklar bo’yicha metodik qo’llanmalar
3. Internet saytlari.



KIMYO FANIDAN O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISH UCHUN INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Karimova Dildor Zaripovna

Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi
3-kurs, 194-gurux talabasi

Annatotsiya: Ushbu maqolada maktabda o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: Binar ma'ruza, Davra suhbat, Trening, pedagogik, ta'lim, ijtimoiy.

BINAR MA'RUZA. “Binar”so'zi lotinchadan olingan bo'lib, “qo'sh”, “ikki” degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi


ikki vakil: o'qituvchi va metodist; o'qituvchi va o'quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor (maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yangi o'quv ma'lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtai-nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.

TRENING. Trening zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishidir. Treninglar o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va ta'lim oluvchilarda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga, shuningdek, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo'naltiriladi. Har qanday pedagogik treningni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig'ish yoki shakllantirish.
2. Boshlang'ich bosqich: guruh me'yorlarini ishlab chiqish, tanishuv va mashg'ulotdan kutuvlarni aniqlash.
3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o'tkazish metodikasini belgilash.
4. Yakuniy bosqich (refleksiya).

Trening mobaynida talabalar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emmotsional va xulq-atvor ko'nikmalari ham rivojlanib boradi.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan.





Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Ishmuhammedov “O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
2. Hasanboyev J., To’raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.
3. Sharipov Sh. Kasb-hunarta’lim tizimida o’quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. // Monografiya. – T.: Fan, 2005. – 136 b.



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING YANGICHA USULLARI

Malikova Xamida Kamalovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

19-IDUM ning biologiya fani o'qituvchisi

Baltayeva Laylo Yusupboyevna

Xorazm viloyati Urganch shahar

19-IDUM ning biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda umuta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishning yangicha usullari, zamonaviy ta'lim tizimining yutuqlari, dars jarayonlarida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning tub mohiyatini o'rganish zarurligi, biologiya fanini o'qitishda qiziqarli metodlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: metodlar, motivatsiya, tabiat, biologiya

Mamlakat rivoji va uning taraqqiyoti o'sib kelayotgan barkamol avlodga bog'liq. Zamon tobora texnika va texnologiya bilan bog'liq holda taraqqiy topib borar ekan, yoshlar ta'lim va tarbiyasi ham barobar katta mas'uliyat talab qiladi. Jahon ta'lim texnologiyalari, zamonaviy uslub, internet bilan bog'liq holda ta'lim tizimini isloh qilish davlat mavqeyini yanada yuqori pag'onalariga olib chiqishga undaydi. Internet asrida tinmay izlanish va harakatda bo'lish, albatta, samara bermasdan qolmaydi. Ayniqsa, gap farzandlar ta'lim-tarbiyasi xususiga borganda. So'nggi yillarga ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor va talab yanada kuchaydi. Respublikamizning chekka xududlaridagi maktablar ham zamonaviy texnologiya asosida jihozlandi. Bu esa, o'quvchilarga ta'lim berishda barcha shart-sharoitlar muhayyo degani. Pedagog hodimlardan talab qilinadigan birgina masala, yaratilgan sharoitlar asosida sifatli bilim berish, izlanish, o'rganish, ijod qilish va ergashtirish hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish boshqa fanlarga nisbatan ancha murakkablik tug'diradi. Dars jarayonini tashkil qilishda aniq faktlar, zarur qo'llanma va manbalar asosida ish ko'rish lozim. Eng so'nggi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali olib borilgan dars o'quvchi kelajagiga turtki bo'lmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yaratish yuqori natija bermoqda. O'qituvchining mavzuga mos metodlarni qo'llay olishi va maqsadga tog'ri erishishida ham pedagogik mahorat talab qilinadi. Ayniqsa, biologiya fanini o'qitishda “Rolli o'yinlar”, “Mazayka”, “Asrlar bahsi”, “Baliq skleti”, Venn diagrammasi”, “Bumerang”, “Sinkveyn”, “Aqliy hujum”, “Zukkolar o'yini”, “Blits” so'rov, “SWOT” kabi metodlardan unumli foydalanish ijobiy natija beradi.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, har bitta ta'lim jarayoni o'zining zamonaviy texnologiyalarga boyligi va yangicha yondashuvlari bilan o'z sifat darajasini ko'taradi. Bu yo'lda davlat ham, pedagoglar ham shu o'rinda yosh avlod ham bir xilda mas'uldirlar.

Biologiya fani boshqa fanlardan farqli o'laroq, har bir darsda, mavzuni o'qitishda o'quvchilar bilan ham guruh holida, ham alohida shug'ullanishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, darsda faollikni, uddabironlikni, chaqqonlik va zukkolikni tashkil qilishga undaydi. O'qituvchi o'quvchilarga nafaqat darsga, hayotga, kelajakka nisbatan yaxshi motivatsiya bera olsa, olg'a intilish bo'ladi, natija ko'rinadi.

Umuman olganda, ustoz o'quvchining tasavvurida kelajakni tasvirlantira oladigan ko'zgu hisoblanadi. O'quvchi ko'zguga qaraganda o'zining kelajagini ko'radi. Mana shu sababli, farzandlarimizga ta'lim-tarbiya berishda shijoat bilan mehnat qilmog'imiz zarur. Zero, kelajak bugundan boshlanadi. Bugunimiz esa, yoshlarimiz olayotgan ta'lim va tarbiyasi haqida barchamiz tengday mas'ul bo'lishga chorlaydi. Alabatta, bu kabi sayi-harakatlar barchasi yosh avlodni kelajak hayotga munosib ravishda tarbiyalash, salohiyatini oshirish va munosib yurt tayanchiga aylantirish uchun qilinayotgan ishlar desak adashmaymiz. Chunki, mamalakat rivoji mana shu barkamol avlodga bog'liq. Shu bois, yosh valodni kelajak uchun munosib tarbiyalashda astoydil



harakat qilmog'imiz lozim. Buning uchun, tinmay izlanish, harakatda bo'lish va zamon bilan hamnafas malaka oshirib borish zarur. Mana shunday mashaqqatli yo'lda har birimizni so'nmas iroda va shijoat also takr etmasin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm va sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Toshkent. 2020-yil 6-noyabr PF-6108-son
2. Azizxodjayeva N.H. Pedagogik texnologiya va texnologik mahorat. – Toshkent.: TDPU, 2003
3. ma'rifat.uz



BOLA TARBIYASIDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'RNI

Masharipova Oliyaxon Ro'zmetovna

Urganch shahridagi 18-son umumiy

o'rta ta'lim maktabining

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 97 459 76 94

Annotatsiya: Maqolada asosan bola tarbiyasida oila, maktab va mahallaning o'rni hamkorlikda bajariladigan vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, maktab, o'quv dasturi, darslik, o'quv topshiriqlari, ko'rgazmalar.

Yoshlarni tarbiyalash juda mashaqqatli va murakkab vazifa sanaladi. Bugungi kunda tarbiya maskanlari bilan bir qatorda ishlab chiqarish va o'quv jamoalaridagi tarbiyachilar, bolalarning turar joylaridagi mahallalar oiladagi ota-onalar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at va boshqa vositalar orqali tarbiya jarayonini amalga oshirib kelinmoqda. Bunda albatta, maktab, oila va mahallaning roli juda muhimdir. Agar ular birgalikda, hamjihatlikda ish olib borishsa natija yuqori bo'ladi. Oila jamiyatning bosh bo'g'ini ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Mana shu go'shada farzand tarbiyasi ildiz otadi, rivojlanadi, sayqallanadi va go'dakning qon – qoniga singadi. Eng yaxshi ezgu amallar ularning qalbiga kattalar tomonidan muhrlanadi. Biz buni maktabda yanada yuksaltirishimiz haqida fikr yuritiladi.

Qadimdan azaliy ota-bobolarimiz farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qarashgan. Ular oila atalmish muqaddas, qutlug' dargohda unib-o'sayotgan murg'ak qalblarni ming – ming yillar davomida asrab- avaylab kelinayotgan ezgulik, mehr–muhabbat, insoniylik, halollik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratishgan. Mustaqilligimiz sharofati bilan oila va mahallaga keng imkoniyatlar berildi. Bugungi kunga kelib mahallaning nufuzi yanada oshdi.

Oila jamiyatning bosh bo'g'ini ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Onalar ham o'z issiq mehrlari bilan farzandlariga to'g'ri tabiya berishlari lozim. Oilaning ulug'lari bo'lgan nuroniy bobo, buvilarning odob – ahloq bobida o'z nabiralarga, zurriyodlariga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar uyg'unligidagi tarbiyasi ularning yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ularning orasida yosh avlodni komillikka yetaklovchi kattaga hurmat, kichikka izzat, Vatanga muhabbat, o'zaro bag'rikenglik, saxovatpeshalik va diyonat kabi go'zal insoniy xislatlarga katta ahamiyat qaratiladi.

Ota-ona o'z farzandini maktabda va maktabdan tashqari vaqtda nima bilan mashg'ul ekanligini doim nazorat qilib borishi lozim. Hurmatli Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan “Besh tashabbus” loyihasi keng yo'lga qo'yilgan. Bunda maktablarda va mahalla tomonidan ham bu muhim tashabbusni amalga oshirish uchun sharoitlar yetarlicha yaratilgan. O'quvchilar 5 tashabbus-5 imkoniyatdan to'g'ri foydalanishsa albatta o'z maqsadlariga erishadilar. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish, uni behuda sovurmaslik, vaqt oltindan qimmat ekanligini bolalar ongiga singdirishimiz lozim.

Oilada farzandning sportga, turli-tuman to'garaklarga jalb qilishning ham foydasi beqiyosdir. Foydali mehnat, sport va kasbga yo'naltirilgan turli to'garaklar ularni yalqovlikdan, bekorchilikdan asraydi. Har xil salbiy oqibatlardan yiroq tutadi. Farzandlarni yoshligidan biror kasbga yo'naltirish ota-onaning zimmasidagi vazifalardan biridir. Ularni o'zlari yoqtirgan, sevgan kasb-hunar egasi bo'lishiga ota-ona va ustozlar to'g'ri yo'l-yo'riqlar berishlari, to'g'ri yo'naltirishlari kerak.

Oila-mahalla-maktab hamjihatligi doim amalda bo'lishi lozim. Bu uchlikning bir-biri bilan uzviy o'zaro bog'langanligi bugungi kunda erishayotgan yutuqlarimizning omili desak adashmaymiz. Buning yaqqol misoli bizning yoshlarimiz jahon arenariga chiqib oltin, kumush vabronza medallari sohibi bo'lib, O'zbekiston Bayrog'ini yuksaklarga ko'tarib, yurtimizga shon-sharaflar olib kelayotganlaridadir. Qolaversa O'zbekiston yoshlari turli sohalarida turli xil tanlovlarda ham birinchilikni qo'ldan bermay e'tiroflarga sazovor bo'lmoqdalar. Shularni e'tirof eta turib, oilada, mahallada va maktabda barkamol fazilatlar egasi bo'lib tarbiyalangan, munosib kasblarga yo'naltirgan farzandlar har doim yangiliklarga intilib, yuksak yutuqlarga erishishlari tabiiy. Bunday barkamol avlodni kelajagimizning haqiqiy egalari deya ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq ta'limi” jurnali . 2019-yil.
2. “Sinf rahbari” ilmiy-metodik jurnali 6/2018. 9-10 bet
3. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2018 iyun.



О‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Quziyev Umidbek Bardiyeovich

Xiva tuman 30-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 151-55-99

u.quziyev30@inbox.uz

Masharipova Qlara Raximovna

Xiva tuman 5-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 152-55-99

masharipovaq.@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda ta’lim texnologiyalarining ahamiyati hamda interfaol metodlardan samarali foydalanish haqida.

Kalit so‘zlar: Tayanch kompetensiyalar, interfaol yondashuv, loyihalash metodi, muammoli modulli ta’lim metodi, shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, klaster.

O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta’lim texnologiyalarini tanlashda o‘quv fani o‘qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so‘ng, o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o‘tish metodi, usuli tanlanadi.

Interfaol yondashuv. O‘qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O‘quvchilarning o‘zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon beriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar.

Loyihalash metodi. Loyihalash metodi - o‘quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladigan o‘qitish tizimidir. Ta’lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog‘liq loyihalarni bajaradilar.

Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o‘quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi, shart hisoblanadi.

Loyihalash metodi orqali o‘quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma’suliyatni his etish; o‘ziga ishonch; o‘qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko‘ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko‘ra bilish; tashxislash; motivatsiya.

Muammoli modulli ta’lim metodi. Muammoli modulli ta’lim metodi olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni nazarda tutadi. Mazkur metod o‘qitishning turli modellarning didaktik asosini tashkil etib, o‘qitish vositalari va pedagogik texnikaning qo‘llash usullari bilan farqlanadi. U o‘quv predmetini nisbatan kichik bo‘laklarga – modullarga bo‘lishni ifodalaydi.

O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchiodamni Shaxs deb ataladi. Indivud sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik shaxsgaaylanadi. Indivud tushunchasida kishining nasl-nasabi mujassamlashgandir.

Loyihalash metodi - o‘quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladigan o‘qitish tizimidir. ta’lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog‘liq loyihalarni bajaradilar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o‘quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi, shart hisoblanadi. Quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma’suliyatni his etish; o‘ziga ishonch; o‘qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko‘ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko‘ra bilish; tashxislash.

KLASTER (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan



iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtiradilar. Foyalarni ma'lumotlarni toifaga mos ravishda bo'ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo'lishi mumkin. Ish natijalarining taqdimoti

BBB Jadvali - Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar. "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni hohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo'limlarini to'ldiradilar. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiyladilar. Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3-bo'limini to'ldiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Interfaol metodlar:mohiyati va qo'llanilishi (Metodik qo'llanma) -T.: "TDPU nashriyoti", 2012
2. Pedagogik mahorat. Mavlonova R.,Abdurahimova D. T.: Fan va texnologiyalar. 2012-yil
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovsiyasi va intergatsiyasi. O'quv qo'llanma R.A.Mavlanova, N.X.Raxmankulova T. G'.G'ulom, 2013 y



OILADA AXLOQIY TARBIYANING SHAKLLANTIRISH

Rayimova Dilbarxon Kochkarbayevna
Qoraqalpog'iston respublikasi Amudaryo tumani
63 – maktab MMIBDO'

Annotatsiya: ushbu maqolada oilada axloqiy tarbiyaning shakllantirish tamoyillari, usullari ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, mehrdaryolik, fahr, mehr – oqibat.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga bag'ri kenglik, mehrdaryolik, o'ta fidoyilik o'zbeklargagina xos xususiyatidir. Shu boisdan ham, ota – onamiz farzandlarning baxti va kelajagi uchun qayg'uradi. Ularning puxta bilim olishlari qiziqishlari bo'yicha kasb – hunar egallashlari, axloq – odob qoidalarni mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash mustahkam poydevorli jamiyat barpo etishning garovidir.

Oilada bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini uning ongini, axloqiy hislatlarini, shaxsiy sifatleri va xulqi tarbiyalash va rivojlantirishni taqoza eyadi. Axloqiy tarbiyaning vazifalari asosan quydagilardir;

1. Bolalarda axloqiy his – tuyg'ularni, tassavvurlar va xatti – harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijodiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. SHaxsda axloqiy his – tuyg'ularni tarbiyalash .
4. Xulqdagi salbiy hislatlarni barxam toptirish.

Oilada amalga oshirilgan axloqiy tarbiyaning mazmuni farzandda o'z ota – onasidan, oilasi, avlod – ajdodlari tarixidan, o'zi tug'ulib o'sgan o'lkasi, vatani, millati, tili, dini, an'analardan g'ururlanishi hissini shakllantirishdan iborat.

Davlatimiz va hukumatimizning ota – ona va tarbiyachi murabbiylar oldiga qo'yayotgan talabi ham aynan shundan ibratdir.

“Bola ongi yoshlikdan boshlab”, “Sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan”, “Sen ulug' mutafakkirlar, alloma zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalangan bobokolanlarning ajdodisan”, “O'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqa sadoqatli xalq”, “Bizning mamlakatda dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyor”, “O'zbek xalqi bag'ri keng, insonpavar, mexmondo'st xalq” kabi tushunchalar bilan shakllantirilsa, uning ongida milliy g'urur, o'zligini anglash paydo bo'lib boradi. Shundagina u o'z avlod ajdodlari an'analari kelgusida davomchisi ekanligini, ongli ravishda tushunib yetdi. Mamlakat, oila tug'ulib o'sgan hudud ravnaqi, amalga oshirayotgan islohatlarning muvaffaqiyoti har bir shaxsning ma'naviy madaniyatligi darajasiga, uning fidokorligiga, halol mehnatiga bog'liq ekanligini qalb anglaydi.

Yoshlarning ma'naviy – axloqiy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash davlatimizning siyosatini ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Oila esa tarbiyaning poydevori o'ziga xos jarayon bo'lib, u farzand tug'ulmasdan ancha oldin boshlanadi. Yaniy bo'lajak ota – onanig salomatligi, nasl – nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq – odobi, moddiy va ma'naviy va jismoniy tayyorligi kelajak farzand tarbiyasida mumkin ahamiyatga egadir.

Milliy g'urur ona suti, ota namunasi, avlod – ajdotlarining irsiy fazilatleri, axloq – odabi mezonlari orqali far-zand ongiga singdiriladi. Milliy g'ururi O.Musurmonova “Oila ma'naviyati– milliy g'urur”.T. “O'qituvchi”.1999.25 – bet. baland yoshlar mamlakatimizning kelajagidir. Shuning uchun har bir fuqoradan, yosh avlodga milliy g'ururni shakllanish, mustahkamlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlash uchun avvalo, millatimizning paydo bo'lib shakllanish tarixi, urf – odatleri, an'analari, adabiyoti, sa'nati, madaniyati, dini va ularning insoniyat tarixi taraqqiyotida tutgan o'rni mukamal bilmoq zarur. Ikkinchidan umuminsoniy qadriyatlarni bilishi, ulardagi milliy mentalitetimizga mos ilg'or g'oyalarni amaliyotga joriy etishga va shu asosda milliy qadriyatlarimizni mazmunan va shaklan boyitmoq lozim. Uchunchidan, jahon andozalariga mos yangi texnika va texnologiya asaslangan ichlab chiqarish jarayonini tashkil etish va unda foallik ko'rsatish kerak. To'rtinchidan, mamlakatimizda istiqomat qiloyotgan fuqoralarning irqi, millati, naslu – nasabi, tili va diniy



etiqotidan qat'iy nazar millatlararo, fuqorolararo totuvlik, hamjihatligi, yakadilliga erishmoq uchun barcha chora tadbirlarni ko'rmoq lozim. Shundagina hech qanday yovuz kuch ko'p millatli mamlakatimizning xalqlari o'rtasiga raxno sololmaydi. Ular bir – birlari bilan do'st – birodar hamfikir, bir – biridan faxrlanish va g'ururlanish hissi bilan yashaydilar. Bunday o'zaro do'stona munosabat yosh avlod tarbiyasida muhim ro'l o'ynaydi.

Axloqiy tarbiyaning yano biri bo'lgan vazifasi insoning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarish. Axloq odob insoning jamiyatga bo'lgan munosabatining negzini tashkil etadi. Axloq odamlarning bir – biriga jamiyatga davlatga, xalq mulkiga, oilaga ishlab shiqarish vositalariga, mehnat masulari va shu kabilarga munosabatini muayyam tartibga soladigan xatti – harakati qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Odob – odamning jamoat, el – yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo's-inda muomla qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xulosa, shaxsning kundalik xulq – atvori, yurish – turishi, xatti – harakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligini xususida baxs etadi. Oilada bolalarni jamiyatga bo'lgan hurmati yuksaltirish mustaqillimizni mustaxkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishiga, axloqiy ongini, o'zligini - o'zini – o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan etiqodini rivojlantirishga olib keldi.

Salbiy illatlarning dastlabki belgilari oilada, maktabda ko'rinadi. Buning oldini olish olishi va bartaraf etishi uchun tinimsiz kurash olib borish zarur. Bunday maktab o'quvchilarning ota – onalari o'quvchilarda, o'z farzandlarida samimiyluk, tashabbuskorlik, follik, mehnatsevarlik, kabi axloqiy sifatlarni, matonat, tashabbuskorlik, chidam, ishonch kabi xislatlarni shakllantirish shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonova O. “O'quvchilarni ma'naviy madaniyatini shakllantirish”. –T., “Fan”, 1993 y, 112-bet.
2. Musurmonova O. “Oila ma'naviyati – milliy g'urur”. –Toshkent, “O'zbekiston”, 1999 y, 200-bet.



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA XATOLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

Sh.Daminova

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
XTBga qarashli 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida xatolar ustida ishlash bo'yicha metodikalar berilgan bo'lib, o'quvchilarni fikrlash darajasini o'sishi, bilim va mehnatga havasini uyg'otish hamda ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat ta'lim standarti, fonetika, grammatika, fikrlash, qobiliyat, tizim, metod, metodika, didaktika, xatolar.

Hozirgi kun talabi – o'quv jarayonini mukammal isloh qilish, o'quvchi imkoniyatini ro'yobga chiqarish, ta'lim samaradorligini muttasil oshirib borishdir. Bunda, so'zsiz, ta'limning yangi, zamonaviy texnologiyasiga suyanish kutilgan natijani berishi muqarrardir ". Ma'lumki, ona tili maktabda o'quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o'sishida, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg'ulotlar tizimi shunday qurilishi lozimki, bu tizim o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, o'z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o'stirishi zarur.

Maktabda o'qitiladigan ona tili fani shunchaki fonetik va grammatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki o'quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta'minlashi, ularda go'zal nutq madaniyatini tarbiyalashi, fikr mulohazalarini ifodali bayon etishga o'rgatib borishi lozim. O'quvchilar har bir ilmiy-nazariy tushunchani amalda qo'llay olishlari uchun ona tili mashg'ulotlarida optimal mashqlar tizimi qo'llanib borilishi shart. Bunda, albatta, an'anaviy usullardan yangicha zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiya shakllariga o'tib ishlash davri keldi. Jumladan, xatolar ustida ishlash ta'lim usulining elementar shakllarini qo'llashga e'tibor berish ham zamonaviy texnologiya tarkibiga kiradi. Biz maqolamizda ana shu masala bo'yicha fikrlar bildiramiz. Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida xatolar ustida ishlash ta'limni qo'llash yo'llari haqida aniq bir uslubiy ish yaratilmayapti. Biz xatolar ustida ishlash ta'lim va uni boshlang'ich sinflar ona tili darslarida qo'llash yo'llarini izlab topish, ularni tajribadan o'tkazish orqali o'quvchilar bilish faoliyatini o'stirish yo'llarini amalda ko'rsatib berish davri keldi.

Olim va o'qituvchilarning harakatlari ta'limning zamonaviy protsessi tashkil qilish usul va qonuniyatlarini bayon qiladi. Gap asosan xatolar ustida ishlash ta'limni tashkil etish to'g'risida boradi.

Xatolar ustida ishlash ta'lim deganda xatolar ustida ishlashlik tamoyilini hisobga olib tuzilgan hozirgi zamon ta'lim jarayonini tushunamiz.

Xatolar ustida ishlash ta'limni ayrim pedagoglarning vaqtinchalik mashg'uloti deb rad etilgan goh uni ta'limning bir shakli yoki vositasi, ta'limning uslubi sifatida qaralgan. Hozirda esa ko'p pedagoglar xatolar ustida ishlash ta'lim g'oyasini qabul qilibgina qolmay, uni amalda qo'llamoqdalar.

Xatolar ustida ishlash ta'lim bu mantiqiy fikrlash jarayoni va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llanish qoidalarining tizimidir. Shuning uchun ham u ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini uning umumiy rivojlanishi va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi.

Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay balki undan foydalangan holda xatolar ustida ishlash ta'lim bo'lib qoldi.

Xatolar ustida ishlash ta'lim nima degani? Uning nazariy asoslari qanday?

Bu savollarga to'g'ri javob berish xatolar ustida ishlash ta'limni tashkil qilish yo'llarini tushunishga yordam beradi.

“Ta'limni umuman olganda, bu katta avlod tajribasini yosh avlodga o'rgatishdir.”¹ Bu o'rinda

1 Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish. T. “O'qituvchi”, 1981, 14-bet.



tajriba tushunchasi keng ma'noda tirikchilik va ilmiy bilimlar faoliyat usullari ijodiy faoliyat tajribasi ma'naviy boylik ma'nosida qo'llanilayotir. Bu mazmunini berish usullari turlicha bo'ladi. Mazmuniga uning o'rgatish usullariga qarab odatda ta'lim tizimi deb ataladigan ta'limning xilma-xil turlari vujudga keldi. Lekin birgina mazmunning o'zida ta'lim to'plangan tajribaning o'rgatish usullariga qarab o'qituvchi bilan o'quvchibig o'zaro munosabat turlari, ya'ni ta'lim tiplariga qarab farqlanadi. Didaktika ta'lim va maorifning umumiy nazariyasi sifatida jarayonni tashkil qilishning mustaqil nazariyasi tarzida bir necha didaktik tizimlarga ega bo'lishi mumkin.

Xatolar ustida ishlash ta'lim o'quvchilarning aqliy harakatlarida tayyor aqliy mashqdan foydalanishida yordam beradi. Xatolar ustida ishlash ta'lim o'qituvchidan o'quvchilarning sistematik suratda bilish harakatlarini keltirib chiqaradigan muayyan harakatlarni talab qiladi.

Xatolar ustida ishlash ta'lim bilan an'anaviy ta'lim orasidagi farqni bir ikki holatda ko'ramiz. Ular asosan maqsad va pedagogik protsessni tashkil qilish tamoyillariga ko'ra farq qiladi.

Tarkib topayotgan ya'lim tipining maqsadi – ilmiy bilish natijalarini o'zlashtirish o'quvchilarni fan asoslari bilan qurollantirish hamda ularda tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilishdir. Xatolar ustida ishlash ta'limning maqsadi ilmiy bilish, bilimlar sistemasi natijalarini o'zlashtirishgina emas, balki bu jarayon natijalariga erishish yo'lini ham o'zlashtirishdir.

O'quvchining mustaqil bilishini shakllantirish hamda uning ijodiy qobiliyatini o'stirishdir.

“O'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan izohli-illyustrativ ta'lim asosida o'quvchilarga fandagi tayyor xulosalarni berish yotadi.”¹ Xatolar ustida ishlash ta'limni tashkil qilish asosida o'quvchining mustaqil bilishini shakllantirish hamda uning ijodiy qobiliyatini o'stirishdir. Modomiki, fikrlash insonning muammo bilan to'qnashuvidan boshlanar ekan, xatolar ustida ishlash ta'lim asosini o'qituvchi tomonidan sistematik suratda va oldindan o'ylab vujudga keltiriladigan xatolar ustida ishlash vaziyatlar tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonashvili SH.A. va b. Pedagogik izlanish. T., “O'qituvchi” – 1990, 608 b. 1
2. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi. T., “O'qituvchi” – 1984, 184 b.
3. Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish. T. “O'qituvchi” – 1981, 195 b.

1 Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish. T. “O'qituvchi”, 1981, 18-bet.



YOSHLAR TARBIYASIDA OILA PSIXOLOGIYASINI O'RNI VA AHAMIYATI

Sidiqov Sardorbek Zafarjon o'g'li
NamDU, Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni tarbiyasida qanday jixatlarga e'tibor berish, turli xil yuzaga keladigan masalalar va ularni bartaraf etishga qaratilgan yechimlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, oila, tarbiya, shaxs, oila psixologiyasi. ota-ona

O'zbekiston mustaqilligi tufayli Respublikasida oila muammolari davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalar qatoridan rasmiy ravishda o'rin oldi. 1998-yilni «Oila» yili deb e'lon qilinishi, «Oila» ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilishi, Respublikada oila manfaatiga qaratilgan maxsus Davlat dasturini qabul qilinishi, uning mantiqiy davomi sifatida 1999-yilni «Ayollar yili» deb e'lon qilinishi, viloyatlarda oilaga xizmat qiluvchi turli maslahatxonalarning tashkil etilishi, oila muammolarini ilmiy tadqiq etish maqsadida O'zbekiston tarixida birinchi oila psixologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida aspirantura tashkil etilishi, ularga aspirantlarning qabul qilinishi yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

Oila fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi deyiladi, chunki har bir jamiyat a'zosining, bo'lajak fuqaroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Unib o'sayotgan yosh kelajak avlodni har tomonlama ma'naviy marifiy, ruxiy-jismoniy, madaniy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib kamolotga yetkazish birinchi navbatda oila deb atalmish muqaddas dargohda boshlanadi. Buning sababi shundaki, tarbiya o'chog'i oila sanaladi. Oila ya'ni ota-onalar yoshlar tarbiyasiga ma'sul shaxslarning eng asosiysi hisoblanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, avvalo farzandni ota-ona tarbiyalaydi. Ota-onani kim tarbiyalaydi?

O'ziga tegishli ma'suliyatni yetarli darajada his qilmagan, ota-ona vazifasi nimadan iborat ekanligini bilmagan, bir-birini tushunib yashamagan, munosabatlarni to'g'ri amalga oshirmagan, bir-birini xaqoratli so'zlar bilan tilga oladigan oilada voyaga yetgan shaxslardan nimani kutish mumkin, ya'ni farzandidan ota-onami yoki farzand ota-onadan? Vaxolanki bu xislatlarni o'zi yo'q ularda. Shuni o'ylab ko'rish mumkinki, o'zida yo'q ijobiy tarbiyani qanday qilib farzandalariga berish mumkin. Shunday ekan biz birinchi navbatda ota-onalar berayotgan tarbiyasidagi yo'l qo'yilayotgan xato- kamchiliklarini ko'rib chiqib, ularga nisbatan to'g'ri munosabat bildirishimiz ya'ni kasallikni davolashdan avval uni oldini olgan afzalroq. Chunki ota-ona farzandiga ko'zgu hisoblanadi, farzand ota-onadan nimani qabul qilsa o'shani qo'llaydi. Quloqsiz farzandlarning tarbiyasidan aziyat chekadigan, noliydigan ot-onalar buni albatta bilishlari lozim. Dastlabki bosqichda ota-onalar oila psixologiyasi bo'yicha saboqlarni o'rganishlari kerak. Chunki ular o'zidagi mavjud muammo, masalalarni hal qilmay turib, farzandi tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qila olmaydi yoki ularning tarbiyasida ijobiy natijalarni ko'rmaydi. Bunday vaziyatda tarbiyasi og'ir bolalar bilan, ularning ota-onalari bilar davra suhbatlari, individual ya'ni yakka tartibda suhbatlar olib borish, psixologik maslahat, turli treninglar o'tkazib amaliy yordam berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ota- onalarimiz qanchalik psixologik bilimlarga ega bo'lishsa fikrlashi, dunyoqarashi yanada kengayib oilasining tinchlik xotirjamligini, farzandlarining bilimli va tarbiyali bo'lishida ijobiy natijalarga erishadilar. Bundan jamiyatimiz ham davlatimiz ham manfaatdor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'unov, F.A.Akramova, G.Solihova, G.Niyozmetova. Oila psixologiyasi, «SHARQ» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2008y.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi.-Toshkent.2007 y.
3. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi.- Toshkent.2001 y.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Sotvoldiyeva Barhayot Numonjonovna

Farg'ona viloyati Quva tumani


42 – maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarni o'qitishda ta'limiy tarbiyaviy ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich matematika, algebraic atamalar, geometric shakllar.

Matematika boshlang'ich kursi ham ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni hal qilishi kerak. Matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda hisoblash, o'lchash va grafik kónikmalarning ma'lum aniq tizimini hosil qilishdan iborat. O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishni, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o'rganishlari, shuningdek o'g'zaki va yozma xulosalar qilishni o'rganishlari kerak. Boshlang'ich maktab matematika dasturi xuddi shunda yónaltirilgan, unda o'qitishda nazariylik saviyasini oshirish ochiq oydin ifodalangan, nazariyani amaliyot bilan uzviy bog'liqlik roli seziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish tarbiya bilan uzviy bog'lab amalga oshirilishi kerak. Boshlang'ich matematikasining tuzilishi o'ziga xos xususiyatlariga ega.



1. Arifmetik materiallar kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar. Algebra va geometriya elementlari asosiy bólim shaklida o'qitilmasdan arifmetik materiallar bilan qóshib o'qitiladi.

2. Boshlang'ich sinf materiali konsentrik (markazdosh) tuzilgan. Masalan, oldin 1-ónlikni nomerlash o'qitilsa, keyin 100 ichida nomerlash va arifmetik amallar bajarish o'qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin kóp xonali sonlar uchida.

Bularni o'qitish bilan bizga nomerlash, miqdorlar, kasrlar algebralik va geometrik materiallar qóshib

o'qitiladi.

3. Nazariya va amaliyot masalalari ózaro organik, bog'langan xarakterga ega.

4. Matematik tushuncha, xossa, qonuniy boshlanishlarni ochish kursda ózaro bog'langan.

5. Har bir tushuncha rivojlantirilgan holda tushuntiriladi. Masalan, arifmetik amallarni o'qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi, keyin komponentlar orasidagi bog'lanish, keyin amal natijasi, oxirida amallar orasidagi bog'lanish beriladi.

6. Asosiy tushunchalar va natijaviy tushunchalar ózaro bog'lanishda berilgan. Masalan, qóshish asosida kópaytirish keltirib chiqarilgan.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning maqsadlari quyidagilar: umumta'lim maqsadi, tarbiyaviy maqsadi, amaliy maqsadi. Bu maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bólib, bir-birini tóldiradi.

Umumta'lim maqsadi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi.

a) O'quvchilarga matematik bilimlar tizimidan, bilim malaka kónikma berish;

b) haqiqiy aniq olamni matematik usullar bilan o'rganish;

v) O'quvchilarni o'g'zaki va yozma nutqlarini óstirishni, uning sifatli bólishini ta'minlash;

g) O'quvchilarga matematikadan shunday bilimlar berishni ta'minlash kerakki, bu bilimlar orqali, aktiv bilish faoliyati orqali, bilim malaka kónikmalari ortib borish.

Matematika ta'limi sohasi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo'llash hamda ta'limning 2-bosqichida o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyogarlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Matematika bo'yicha standart ko'rsatkichlari oquvchilarda 1000000 gacha bolgan sonlar va nol to'g'risidagi tasavvurni shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishda natural sonlar va ular ustida arifmetik amallarni qo'llay olishga o'rgatish, eng sodda geometrik shakllar haqida tasavvurga ega bo'lish hamda o'g'zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilish nuqtai



nazaridan izohlanadi.

Sonlar va hisoblashlar:

- Narsalarni sanash. 1 dan 1 000 000 gacha ketma-ket kelgan sonlar qatori va nol soni, ularning nomi va yozilishi. Sinflar va xona birliklari.
- Sonlar uchun “teng”, “katta” va “kichik” munosabatlari va ularning mos belgilar bilan yozilishi;
- Sonlarni qo‘shish va ayirish amallari va ularga mos belgilar;
- Qo‘shish jadvali, “... Ta ortiq”, “... Ta kam” munosabatlari;
- Sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish amali hamda ularga mos belgilar.
- Ko‘paytirish (karra) jadvali. “... Marta ortiq” va “... Marta kam”. Qoldiqli bo‘lish;
- Nol ustida amallar;
- Sonli ifodalarda amallarni bajarish tartibi. Qavs qatnashgan va qavs qatnashmagan sonli ifodalarning qiymatini topish;
- Qo‘shishda qo‘shiluvchilar o‘rnini almashtirish. Ko‘paytirishda ko‘paytuvchilar o‘rnini almashtirish;
- Qo‘shishda qo‘shiluvchilarni guruhlash. Ko‘paytirishda ko‘paytuvchilarni guruhlash. Yig‘indini songa va sonni yig‘indiga ko‘paytirish. Yig‘indini songa bo‘lish.
- Sonlar ustida og‘zaki va yozma hisoblashlar. Hisoblashlarni bajarishda arifmetik amallarning xossalariidan foydalanish. Arifmetik amallarning noma’lum ikkinchi komponenti (tashkil etuvchisi) ni topish. Hisoblashlarning to‘g‘riligini tekshirish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N.I., Yangiboyeva YE. Matematika:-2-sinf uchun darslik, 4-nashri.-T: «O‘qituvchi» 2010.-240b
2. Bikbayeva N.I., Yangiboyeva YE. Matematika:-3-sinf uchun darslik, 3-nashri..-T: «O‘qituvchi» 2010.-288b



INSON KUCHI, AQL- ZAKOVATI BILAN YARATILGAN DUNYO

Seitova Zuhraxon Pirjanovna

Dotsent,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Turkbenbayeva Durdona

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat

pedagogika instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati va o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, dunyo, kuch, ong, tarbiya, ma’rifat, bag‘rikenglik.

Avvalo, mustaqillik bizga o‘z taqdirimiz va hayotimizga egalik qilish huquqini berdi. Bu esa o‘z kelajagimizning bunyodkori o‘zimiz deganidir. Barchamizga ma’lumki, mustaqillikdek oliy ne’matga erishganimizdan so‘ng, muqaddas an’ana va milliy qadriyatlarimizga tayanib yashay olish huquqiga ham erishdik. Mustaqillikdan oldin bo‘lsa, o‘zligimizni anglashimiz bilan bir qatorda an’ana va qadriyatlar asosida hayot kechirishimizga yo‘l qo‘yilmagan, vaholanki milliy urf-odat va an’analarsiz millat – millat bo‘lmaydi.

Har qanday davlat birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati hamda ma’naviyati bilan kuchlidir. Bunda qadriyatlarimiz, urf-odat va an’alarimizni o‘zida kelayotgan yosh avlod ongiga singdirish, ularni milliy ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Aytib o‘tish joizki, mustaqillikdan keyin bir qator bayramlarni nishonlash yurtimizda an’anaga aylanishi millatimiz tarixida yangi davrning boshlanishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanishdir. Ayni paytda, yurtimizda ma’nan yetuk hamda barkamol bo‘lgan shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’alariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko‘p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralalarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”, - degan jumlalarini keltirib o‘tishimiz o‘rinli deb o‘ylayman. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyat va an’alarning ahamiyati katta bo‘lib, ular tarbiya jarayonida eng ta’sirchan qurol vazifasini bajaradi desak noo‘rin bo‘lmaydi [1]

Bilamizki, jamiyat yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmasdan yoxud mustahkamlamasdan turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi, shuningdek har bir davlat o‘zida kelayotgan kelajak avlodni o‘z milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari negizida tarbiyalashi uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ya’ni mustaqillikka erishgan bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda dunyoda globallashuv jarayonining tezlashishi hisobiga dunyo xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ham ortib bormoqda. Tabiiyki, O‘zbekiston ham bundan chetda turgani yo‘q va bu holat yoshlarimiz tarbiyasiga, fikrlashiga umuman hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Hammaga ayonki, biz axborot texnologiyalari davrida yashayapmiz va doimiy tarzda internetdan, axborot tizimlaridan foydalanamiz, turli xil ko‘rsatuv, reklama va kinolar tomosha qilamiz. Buning natijasida ma’naviy hayotimizga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli qadriyatlarining hayotimizga, turmush tarzimizga kirib kelishiga o‘zimiz imkon beramiz, o‘zimiz sharoit yaratamiz.

Mustaqilligimiz sharofati bilan qadriyatlarimizni qayta tiklash jarayonini amalga oshirayotganimizda o‘zga millat urf-odatlari, an’analari va kiyinish madaniyatini qabul qilishga intilish, boy milliy ma’naviyatimizga salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bu holatda albatta o‘zida kelayotgan yosh avlodga qadriyatlarni bir-biridan farqlash, internet tarmoqlaridan aql bilan foydalanish kabi holatlar bo‘yicha tushunchalar berilgan bo‘lishi kerak.

Zero, yoshlarimiz globallashuv jarayonida kechayotgan voqea hodisalarni to‘g‘ri talqin qila olishi, ularga to‘g‘ri munosabat bildira olishi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, yoshlarning etnik qiyofasi millatning bugungi milliy tarbiyasi, mentaliteti,



madaniyatining o‘zaro dialektik munosabati vositasida shakllanadi. Ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi. Markaziy Osiyoda yashab, ijod qilgan qomusiy olimlar, buyuk ajdodlarimiz, XIX asr va XX asr mutafakkirlari va pedagoglarining ta’lim-tarbiya xususida aytgan nazariy fikrlari, pedagogik nazariyalari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Zamonaviy pedagogikada ulardan foydalanish o‘z samarasini beradi. Yuqorida oilada bola tarbiyasi yuzasidan berilgan nasihatlardan hozirgi tarbiyachilar o‘z tajribalarida foydalansalar va bugungi yangi ilmiy qarashlar bilan bog‘lab yondashsalar, shak-shubhasiz yaxshi natija olish mumkin. Demak, oilada inson tarbiyasi, uning hayotda o‘z o‘rnini aniqlashi, shaxsni yashashga o‘rgatish jamiyat faoliyatining muhim sohalaridan bo‘lib kelgan. Tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni biror bir faoliyatga o‘rgatishdan iborat. Tarbiyaning umumiy yo‘nalishlari qadim zamonda vujudga kelgan va rivojlangan. Tarbiyaning umumiy tamoyillar asosida olib borilishi o‘ziga xos xarakterga ega. Shunday ekan, ota-onalar ham butun davlatimiz bilan birgalikda oilada farzandlarini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz tarbiya jarayonida samaradorlik omili ekanligini anglab, uni yangi shakl va metodlar bilan bog‘lab qo‘llasalar, farzandlar qalbi, psixologiyasidagi tushunchalarni hozirgi davr tushunchalari bilan hamohang bog‘lab borsalar, ayni muddao bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida milliy-ozodlik harakati fidoyilari safida faol harakat qilgan Abdulla Avloniy bobomizning: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[2,39], - degan jumllalarini keltirib o‘tishni joiz deb topdim. Darhaqiqat, bola yosh nihol va qayoqqa egsa shu tomonga qarab o‘saveradi.

Adabiyotlar;

1. Mirziyoyev Sh. M. Bilimli avlod – buyuk kelajagimizning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018-yil.
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. –Toshkent: “Sharq”, 2004.
3. Jo‘rayev N. Ma’naviyat – inson qalbining sarchashmasi. – T.: Ma’naviyat, 2015.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMMUNIKATIVLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xalilova Rohatoy Egamovna

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
rohatoyegamovna@gmail.com/90-984-20-24

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfdagi o'qituvchi va o'quvchi muloqotining muhimligi sabablari bayon qilingan..

Kalit so'zlar: muloqot qobiliyati, kommunikativ ko'nikmalar, ota-onalar markazi

Shiddat bilan o'zgarayotgan zamonamizda barcha sohalarida ro'y bergani kabi ta'lim sohasida ham mislsiz o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirildi. Lekin ota-onalar bilan samarali muloqot qilish har doim ham maktab va o'qituvchilar ishlarining muhim qismi bo'lib qolaveradi.. O'qituvchilar bolalarning bilim olishlariga yordam berish uchun ularning oilalari, tili va madaniyati haqida bilishlari kerak. Maktab bilan muloqotdan ota-onalar foyda olishadi, chunki ular maktabda nima sodir bo'lishi haqida ko'proq bilib olishadi va uyda o'rganishni rag'batlantirishi mumkin. Eng muhimi, bolalar yaxshilangan muloqotdan foyda ko'rishadi, chunki uy va maktab o'rtasidagi aloqa bolalarga o'rganish va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. O'z ishini yaxshiroq bajarish uchun o'qituvchilar bolaning maktabdan tashqari hayoti to'g'risida bilishlari kerak. Ba'zi o'qituvchilar ota-onalarning ish vaqtiga mos keladigan majlis va tadbirlarni rejalashtirishadi. Mehmonlarni iliq kutib oladigan yoki ota-onalar markazi mavjud maktablarda ota-onalar o'zlarini yanada qulay his qilishadi. Ba'zi o'qituvchilar ota-onalarga qo'ng'iroq qilishadi. Ba'zilar ota-onalarga eslatmalar yozadilar yoki boshqa oila a'zolari bilan birga bola haqida ma'lumot yuboradilar. O'qituvchilar va maktab oilalar bilan aloqani osonlashtirish uchun ko'pnarsalarni qilishlari mumkin. Ikkala tomon uchun ham yaxshiroq bo'lgan muloqot usullarini aniqlash muhimdir. Muloqot sinfda muhim o'rin tutadi: muvaffaqiyatli o'qitish odatda 50% dan 100% gacha bo'lgan muloqot qobiliyatlarini talab qiladi deb hisoblanadi. Natijada, o'qituvchi barcha to'rtta aloqa usullarini - tinglash, gapirish, o'qish va yozishni yaxshi bilishi va ushbu bilimlardan maktab sharoitida qanday qilib samarali foydalanishni bilishi kerak..

O'qituvchilar uchun samarali muomala ko'nikmalariga ega bo'lish nega muhim? O'qituvchilar uch xil yo'nalishdagi muloqot qobiliyatlaridan foydalanadilar: o'quvchilar bilan, ota-onalar bilan va hamkasblar bilan muloqot .

O'quvchilar bilan muloqot qilish. Muloqot qobiliyatlari o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlar uchun eng muhim ahamiyatga ega, chunki o'qitishning o'zi ularni talab qiladi. O'zingizning rolingizda siz murakkab ma'lumotlarni anglash va tushuntirish, bu ma'lumotlarni o'quvchilaringizga aniq yetkazish (og'zaki va yozma manbalarda), ularning e'tiborini jalb qiladigan tarzda taqdim etish, ularning savollari yoki muammolarini tinglash va hal qilish uchun javobgarsiz. Sizdan tarkibni turli xil o'quv uslublariga moslashtirish, o'quvchilarni o'rganishga undash, rag'batlantirish va hamdardlik yordamida qo'llab-quvvatlovchi aloqalarni o'rnatish, sinfni boshqarish va fikr-mulohaza bildirishtalab etiladi – bu sizning sinfingizni xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitiga aylantiradi. Bularning barchasi yaxshi muloqot qobiliyatini, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlanganligini talab qiladi. Muloqot qobiliyatingiz qanchalik yaxshi bo'lsa, ushbu vazifalarni shunchalik samarali bajarishingiz mumkin. O'z navbatida, sizning o'quvchilaringiz ko'proq ilmiy yutuqlarga erishadilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning muvaffaqiyati qobiliyatli o'qituvchilar tomonidan yaratilgan interaktiv, qiziqarli o'qitish muhitlari bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari, sizning o'quvchilaringiz bilan muloqot tarziningiz ularning maktab haqidagi tasavvurlariga, ularning sinfdagi o'rni, o'zlari va qobiliyatlari va muvaffaqiyat

motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (qarang: Dobbs va Arnold, 2009).

Biroq, salbiy muloqot qobiliyatlari va buning natijasida o'qitishning samarasiz usullari - o'quvchilarning tushunish darajasining pasayishiga olib keladi va ularning o'quv yutuqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu, shuningdek, o'quvchilarda motivatsiyaning yetishmasligiga, maktabni yoqtirmasliklariga va muvaffaqiyatga erisha olmayotganiga ishonishiga olib kelishi mumkin. Bu o'quvchilarning kelajaklariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida samarali aloqa juda muhimdir.



Ota-onalar bilan muloqot qilish. O'qituvchi sifatida siz ota-onalar bilan samarali muloqot qilishingiz kerak bo'ladi. Bu turli xil vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin, jumladan, telefon qo'ng'iroqlari, elektron pochta xabarlar va shaxsiy uchrashuvlar, shuning uchun siz og'zaki va yozma tillarni bilishingiz kerak. Bu juda muhimdir, chunki siz ota-onani chalkashtirib yubormaslik yoki o'zini himoya qilmasdan, sezgir mavzular - masalan, xatti-harakatlar, o'quv muammolari va o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini muhokama qilishingiz kerak bo'ladi. Siz har doim jiddiy, ammo muloyim bo'lishingiz juda muhimdir. Ota-onalar bilan yaxshi aloqada bo'lmalik, ular sizning o'qitishingizga shubha tug'dirishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shikoyatlarga, shuningdek, farzandining faoliyati va ta'lim ehtiyojlarini tushunmaslikka olib kelishi mumkin.

Hamkasblar bilan muloqot qilish O'qitish har doim ham mustaqil ishni o'z ichiga olmaydi – bu hamjihatlikni talab qiladi. Birgalikda darslarni rejalashtirishni xohlaysizmi, hamkasblaringizni muayyan o'quvchilarning yutuqlari to'g'risida xabardor qilasizmi yoki sinfdagi muammolarni hal qilish bo'yicha maslahatlar bilan bo'lishasizmi, yaxshi muloqot qobiliyatlari siz uchun foydalidir. Shuningdek, siz ushbu ko'nikmalarni xodimlar yig'ilishlarida va o'quv mashg'ulotlarida qo'llashingiz mumkin – yig'ilishlarni olib borish, turli xil auditoriyalar oldida chiqish qilish va boshqa xodimlar bilan fikr-mulohaza bildirish sizning yuqori lavozimlarga ko'tarilish uchun yaxshi nomzod ekanligingizni ko'rsatishi mumkin. Demak, samarali muloqot qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Xoliqov.” Pedagogik Mahorat”- Toshkent-2011
2. Ishmuhammedov M, Yo'ldashev “Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. T-1998
3. ziyonet.uz, eduportal.uz



МАКТАБ YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TARBIYALASH

Xojiyeva Muazzam Toxirovna

Toshkent viloyati Parkent tumani

Xalq ta’limi bo’limi tasarrufidagi

34-umumiy o'rta ta'lim maktabining

amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi o’quvchilarning tarbiyasi, ta’lim olishi va unga bog’liq ravishda pedagogik-psixologik tarbiyalash jarayonlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: tarbiya, ta’lim, xulq-atvor, maqsad, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, shaxs, bilim, pedagog, o’quvchi, jarayon, maktab.

Tarbiyaviy jarayon ijodiy jarayon bo’lib, u pedagogik vaziyatni tahlil qilish, bolalar bilan bevosita hamkorlik qilishda yorqin namoyon bo’ladi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o’stirish, uning ongi, psixologik xarakteri, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo’lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo’naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Ta’lim – o’quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo’naltirilgan jarayon.

Ta’lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli xamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko’rish ko’zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma’lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baxolash, ularning rivojini ko’ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o’tishini kuzatish, ularning o’zaro bog’liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o’quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko’nikmalari xamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon bo’lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me’yorlardir. Axloq (lotincha «moralis» xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yigindisi. Axloqiy me’yorlar to’g’risidagi bilimlar o’quvchilar ongiga ta’lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o’quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko’nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko’rinadi.

Axloqiy tarbiya o’quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muxim ahamiyatga ega bo’lib, uni samarali tashkil etishda ong, xis-tuygu xamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O’qituvchi o’quvchi qalbiga yo’l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloqi, madaniyati, hushmuomalaligi bilan ham namuna bo’lishi lozim. Shundagina o’qituvchi va o’quvchi orasida ota-bolalardek insoniy munosabat qaror topishi mumkin.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o’smir va yosh yigitning betakror va o’ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim bo’ladi.

Ta’lim-tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma’muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo’yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o’rtasidagi o’zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o’zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni keng jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoatchilik ta’sirini kiritish demakdir.

Aqliy tarbiya o’quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo’lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.



Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Ta'lim–tarbiya jarayonida shaxs bilan bog'liq bo'lmagan masala yo'q, shaxsga xos bo'lgan ayrim psixik jarayonlar inson psixikasi, uning amaliy faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi, tarkib topadi va rivojlanadi. Bugun barkamol avlodning butun hayoti va faoliyati jarayonida uning psixikasini o'rganish va boshqarish psixologiyaning amaliy vazifasi hisoblanib, intellektual salohiyatli va ilmiy dunyoqarashini boyitib tarbiyalashga mustahkam asos bo'ladi. Shuning uchun ham bilish jarayonlarini anglash orqali ta'lim tarbiya tizimini boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Ta'lim–tarbiya jarayonini ilmiy asosda boshqarish uchun esa, pedagog tabiat va jamiyatga nisbatan qarashlar tizimini shakllantirgan bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G'oziyev-Umumiy psixologiya,2002
2. M.Voxidov. Bolalar psixologiyasi. Toshkent.1974 y.
3. U.Maxkamov. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – Toshkent, O'zbekiston, 1993



РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Абдуллаева Дилфуза Бабахановна

Ургенчский Государственный университет,
факультет филологии, кафедра русского языка и литературы

Аннотация: В статье авторы обращаются к рассмотрению вопроса о роли самостоятельной работы студентов в образовательном процессе. Авторы статьи указывают на значимость самостоятельной работы студентов в современной системе высшего образования.

Ключевые слова: самостоятельная работа студентов, профессиональная деятельность, учебный материал.

Самостоятельная работа предполагает, что студент выполняет различного рода задания, включающие в себя программный материал, который не освещался во время аудиторных занятий. Данный вид деятельности способствует развитию и активизации творческой деятельности студентов и может рассматриваться в качестве главного резерва повышения качества подготовки специалистов.

Изучение реального состояния самостоятельной работы свидетельствует о том, что студенты слабо владеют общеучебными навыками и умениями: конспектирование, рецензирование, анализ и синтез прочитанного. При самостоятельном изучении учебного материала и первоисточников студенты затрудняются в выделении главного, основного, в формулировке выводов, в выработке своего мнения, своей оценки прочитанного.

Активная самостоятельная работа студентов возможна только при наличии серьезной и устойчивой мотивации. Самый сильный мотивирующий фактор – подготовка к дальнейшей эффективной профессиональной деятельности. Суть самостоятельной работы, по нашему мнению, состоит в самоорганизации понимания изучаемого материала, извлекаемого из различных источников, в построении студентом собственной точки зрения, своего отношения к изученному, в определении практической значимости изученного материала. Организация самостоятельной работы начинается, прежде всего, с:

- определения содержания и объема самостоятельной работы по каждому курсу;
- установления определенной дозы материала для самостоятельного изучения в каждой теме на конкретный промежуток времени.

Самостоятельная работа студентов имеет серьезные недостатки. Во-первых, это неумение студентов организовать свою самостоятельную работу. Отсутствие навыков планирования, самоорганизации и самоконтроля приводит к тому, что творческие работы студенты выполняют в самый последний момент на весьма низком уровне, зачастую пользуясь плодами трудов более успешных однокурсников, возможно, родителей, компилируя известные учебники, «решебники», монографии, статьи или даже скачивая аналогичные работы сомнительного качества из Интернета. Во-вторых, отсутствие у студентов элементарных навыков работы с книгой, справочной литературой (цитирование, конспектирование, реферирование, резюмирование и т.п.), неумение выделять главное и второстепенное, проводить сравнительный анализ, обобщать, сводить в таблицы теоретический материал, делать выводы и пр.

Результативность самостоятельной работы студента как критерий качества педагогического управления образовательным процессом определяется ее развитием в двух направлениях:

- в уровне освоения студентом в процессе самоподготовки способности ориентироваться в ситуациях, моделирующих будущую профессиональную деятельность через задания-ситуации, специальные упражнения, в использовании теории для решения практических стандартных задач;
- степенью включенности студентов в исследовательскую деятельность посредством выполнения нестандартных заданий и заданий повышенной сложности и в реальную производственную практику с максимальным использованием жизненного опыта студентов, ориентирующего их на будущую профессиональную деятельность.

Одной из задач самостоятельной работы является формирование у обучающихся профессиональных компетенций и чувства ответственности, развитие самостоятельного и не-



стандартного мышления. Самостоятельная работа призвана научить студентов самостоятельно применять накопленные знания и опыт, управлять процессом самообразования, организовывать собственную деятельность. Кроме того, самостоятельная работа студентов формирует навыки работы в научно-информационной среде и интеллектуальные компетенции [1].

Основная задача организации самостоятельной работы студентов заключается в создании психолого-дидактических условий развития интеллектуальной инициативы и мышления на занятиях любой формы. Основным принципом организации самостоятельной работы должен стать перевод всех студентов на индивидуальную работу с переходом от формального выполнения определенных заданий к познавательной активности. Цель самостоятельной работы – научить студента осмысленно и самостоятельно работать сначала с учебным материалом, затем с научной информацией, заложить основы самоорганизации и самовоспитания. Самостоятельная работа студентов способствует тому, чтобы студент не только овладел компетенциями по данной дисциплине, но и сформировал навыки самостоятельной работы во всех видах деятельности: учебной, научной, профессиональной; сформировал способность принимать на себя ответственность, самостоятельно решать проблему, находить конструктивные решения и выход из кризисной ситуации и т.п.

Список литературы:

1. Ваганова О.И., Кутепова Л.И., Гладкова М.Н., Гладков А.В., Дворникова Е.И. Разработка средств оценки образовательных результатов обучающихся вуза // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2016. №11-1. С. 134-136.
2. Загвязинский В.И. Исследовательская деятельность педагога: учебное пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. М., 2008.



**МАТЕМАТИК МАСАЛАЛАР ЕЧИШ ОРҚАЛИ БЎЛАЖАК
МУТАХАССИСЛАРНИНГ АМАЛИЙ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

Абдурахмонова Шохидохон Абдуқодировна,
Ассистент, Тошкент ирригация ва кишлоқ
хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институтини Миллий тадқиқот университети
e-mail: sh.abdurakhmonova@com.uz

Аннотация. Таълим жараёнининг умумий тавсифидан келиб чиққан ҳолда касб таълими жараёнининг назарий ва амалий жиҳатларини кўриб чиқишда масала, машқ тестлардан фойдаланиш, реферат, савол - жавоб ва талабаларга билим беришнинг бошқа методикаларига алоҳида аҳамият қаратилади. Мақолада математик масалалар ечиш орқали бўлажак мутахассисларнинг амалий касбий тайёргарлигини такомиллаштириш вазифалари ёритилган бўлиб, масалалардан фойдаланиш амалий йўналишга эга бўлгани учун мавзунини ўрганиш ва талабалар билимини назорат қилишнинг самарали усули ҳисобланади.

Калит сўзлар. масала, машқ, тест, реферат, савол, жавоб, математика, амалиёт, мавзу.

Касб таълимининг амалий жиҳатларини тўлиқ ифодалаш учун фақат “амалий таълим” ёки “ишлаб чиқариш таълими” тушунчаларидан фойдаланишнинг ўзи етарли эмас. Зеро, “амалий таълим” тушунчасини педагогикадаги “амалий таълим” тушунчасига нисбатан қўллаш “ишлаб чиқариш таълими”да касб таълимининг амалий қисмларини ўзига тўлиқ қамрай олмайди. Шу сабабли касб таълимининг амалий жиҳатларини яхлит мажмуавий ифодалаш учун “амалий касбий таълим” тушунчасидан фойдаланилади.

Мазкур тушунча матн ёки педагогик мулоқот билан боғлиқ бўлиб, “касбий фаолиятга амалий тайёргарлик” маъносини ҳам беради. Амалий касбий таълимнинг бош мақсади сифатида талабаларда касбий маҳорат асосларини шакллантириш, шунингдек, амалий касбий таълимни умумий ўқув жараёнининг ўзига хос мақсади, мазмуни, мантиғи, тамойиллари, шакллари, методлари ва воситаларига эга бўлган алоҳида мустақил қисми сифатида талқин этиш мумкин.

Таълим жараёнининг умумий тавсифидан келиб чиққан ҳолда касб таълими жараёнининг назарий ва амалий жиҳатларини алоҳида қараб чиқиш мақсадга мувофиқ. Касбий фанларни ўрганишда масала, машқ, тестлардан фойдаланиш, реферат, савол - жавоб ва талабаларга билим беришнинг бошқа методикаларига қараганда устунликларга эга. Масалалардан фойдаланиш амалий йўналишга эга бўлгани учун мавзунини ўрганиш ва талабалар билимини назорат қилишнинг самарали усули ҳисобланади. Айниқса масалалар орқали иқтисодий фаолиятнинг айрим масалаларини аниқ таҳлил қилишда бошқа усулларга қараганда талабаларнинг билимини назорат қилишда кенг имкониятга эга.

Масала мавзуси учун ҳар қандай вазиятни танлаш мумкин. Масалалар талабалар билимини бутун дастур бўйича назорат қилиш, шу билан бирга энг асосий ёки тушуниш қийин категориялар ёки мавзуларни тушунишга қаратилган бўлиши мумкин.

Талабалар томонидан дарсда ёки уйга вазифа сифатида масалаларнинг мунтазам ечиб турилиши ҳамда унинг талабалар ўртасида муҳокама қилиниши, уларнинг олган билимини, бир томондан, узлуксиз назорат қилиш, иккинчи томондан, тушунмаган масалаларни тушуниб олиш имкониятини беради.

Шу билан бирга масала тузишда дуч келадиган анъанавий қийинчиликлар ҳақида ҳам тўхталиб ўтиш керак. Биринчидан, масаланинг шартларини турлича изоҳлаш, айниқса мумкин бўлган вариантлари бир неча хил бўлиб, уларнинг ичидан нисбатан у ёки бу мезонга кўра энг оптимал вариантларни топиш шартини қўйилган масалаларда эҳтиёт бўлиш керак. Сабаби масалаларнинг шартини аниқ қўйилмаслиги натижасида талабалар масала тузувчи кўзда тутмаган масалалар ечими, вариантларини таклиф қилиши ҳамда масала шартига умуман олганда мос келиши мумкин экан. У ҳолда ўқитувчи қийин аҳволда қолади. Масалани аниқ жавобини тўғри деб топиб, талабаларни рағбатлантириш ёки шартни ноаниқлигидан фойдаланиб кўзда тутилмаган, лекин тўғри ечиш йўлини топган талабага энг юқори балл қўйиш лозим. Ундан ташқари бир жавобнинг ўзини бир неча усул билан ечиш мумкин.



Масалани қайси йўл билан ечган талаба энг юқори балл олишини ўқитувчи олдиндан аниқлаб қўйиши керак. Иккинчидан, касб таълимида, умуман иқтисодий фанлардан ечиладиган жуда кўп масалалар математик ҳисоб – китоб қилишни талаб қилади. Айрим пайтларда ўқитувчи масала тузар экан, бу масала талабани математикадан эмас балки, касбий таълим методикасидан билимини синаш кераклигини ёдидан чиқармаслиги лозим. Шунинг учун яхши иқтисодий масала у ёки бу иқтисодий тушунчаларнинг мазмунини чуқур ўрганишга ундаши, масалани ечиш учун зарур даражада тушунча бўлишини зарурлигини такозо қилиши керак.

Математик ҳисоб-китоблар эса ёрдамчи аҳамиятга эга бўлиши зарур. Маълумотлар шуни кўрсатадики, масалаларни тузиш учун ўқитувчи фаол тажриба, малака, моҳирликка эга бўлиши лозим. Қўйилган шартга биноан мураккаблигига кўра масалаларни уч гуруҳга бўлиш мумкин:

1. Маълум бир категория, тушунчани асосий мазмунини билишга қаратилган масалалар.
2. Маълум бир тушунча асосида ҳисоб-китоб қилиш, ундан хулоса чиқаришга қаратилган масалалар.
3. Масалани ечиш учун мазкур категория ҳақида умумий тушунча бўлишини талаб қиладиган масалалар.

Қандай масалани ечишни ўқитувчи ўтилатган мавзу, гуруҳдаги талабаларнинг индивидуал хусусиятларидан келиб чиқиб танлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ғуломов С. С., Шарифхўжаев М. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. Т., “Ўқитувчи”, 2000.
2. Д.Тожибоева. Касбий фанларни ўқитиш методикаси. Т., 2003.
3. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши “Насаф”, 2000.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲАРАКАТЛИ ВА МИЛЛИЙ ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Каримова Мохигул Абдухоликовна

Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва
мутахассисларини қайта тайёрлаш ва малакасини
ошириш институти мустакил изланувчиси
mohigul.karimova@mail.ru

Аннотация. Ўзбек халқининг кўп йиллар давомида шаклланган, авлодларига мерос бўлиб қолган миллий ўйинларидан фойдаланиш янги Ўзбекистонда соғлом авлод учун олиб борилаётган ишларнинг давомчиси десак бўлади.

Ёшларнинг дунёқариши жисмоний ва маънавий кадриятлар билан узвий боғлиқлигини ҳисобга олган ҳолда, мақолада мактабгача таълим ташкилотларида ҳаракатли ва миллий ўйинлардан фойдаланишнинг аҳамиятини ёритиб беришга ҳаракат қилдик.

Калит сўзлар: тарбия, мактабгача таълим, индивидуал эҳтиёжлар, илк ва мактабгача ёш, ўқув дастури, ривожланиш.

Ўзбек халқининг минг йиллар давомида яратган, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган ижод бойликларини тўплаш, ўрганиш, бу бой хазиналар асосида ёш авлодни маънавий бой, ахлоқий пок, жисмоний баркамол қилиб тарбиялаш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Айниқса, янги Ўзбекистонда миллий кадриятларимиз, анъаналаримизга бўлган эътибор янада кучмоқда. Бу ҳаётнинг ҳамма жабҳаларида, жумладан тарбиянинг асосий қисмларидан бири бўлган мактабгача таълим тизимида ҳамтурли даражада ўзини намоён эта бошлади.

Мактабгача таълим тизимининг мақсад ва вазифалари қуйидагилардан иборат:

- боланинг индивидуал эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда илк ва мактабгача ёшдаги болаларнинг ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари асосида ҳамда мактабгача таълим тизими давлат ўқув дастурига мувофиқнинг ҳар томонлама ва баркамол ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратиш;
- мактабгача ёшдаги болаларнинг таълим-тарбияфаолиятини ташкил қилиш ва амалга ошириш;
- болаларнинг илк ривожланиши масалаларида ота-оналар ва жамиятга тегишли билимлар беришни ташкил этиш ва амалга ошириш;
- болаларнинг илк ривожланиши масалаларида оила ва жамият билан ўзаро ҳамкорликни ташкил қилиш ва амалга ошириш.

Ёш авлодни соғлом ва баркамол қилиб тарбиялашда мактабгача таълим тизими олдида катта маъсулиятли вазифалар қўйилган. Ёш авлодни тарбиялашга имкон берадиган, уларнинг руҳий, ақлий ва жисмоний сифатларини ривожлантиришига қаратилган ўйинларни миллийлаштириш, халқимизнинг унитилиб бораётган ўйинларини тўплаш, ҳаётгатадбиқ этиш, ривожлантириш йўллари ва усулларини қайта кўриб чиқиш заруриятини келтириб чиқаради.

Ўзбек халқининг кўп йиллар давомида шаклланган, авлодларига мерос бўлиб қолган миллий ўйинларидан фойдаланиш бугунги кунда Янги Ўзбекистонда жуда ҳам зарур. Соғлом авлод учун олиб борилаётган ишлар ёшларнинг дунёқараши, жисмоний ва маънавий кадриятлар билан узвий боғлиқликни таъминлашга қаратилганини таъкидлаб ўтиш керак. Бу эса ўзбек халқ миллий ўйинларини илмий жиҳатдан тадқиқ этиш, уларни мактаб, мактабгача таълим ташкилотлари ўқув дастурларига киритиш, ижтимоий-тарбиявий аҳамиятга эга бўлган турларини спорт даражасига кўтариш жисмоний маданият фани олдидаги энг долзарб муаммолардан бирига айланганлигини кўрсатади.

Шу билан бирга ҳаракатли ва миллий ўйинларини тўплаш ва уларни ҳаётга тадбиқ этиш, улардан оқилона фойдаланиш бугунги кунда олдимизда турган ҳам назарий, ҳам амалий аҳамиятга эга бўлган муҳим вазифа бўлиб ҳисобланади. Ушбу вазифа ёш авлодни соғлом ва баркамол қилиб тарбияловчи жисмоний маданият олдида ҳам катта маъсулият юклайди.

Ёшларни ҳар томонлама жисмоний бақувват қилиб тарбиялашга имкон берадиган, болалар жисмоний сифатларини ривожлантиришга қаратилган бу муаммони мактабгача



ва умумтаълим мактаб ёшлари ташкилий ва педагогик жараёнларни билан бирга бирига боғлаб келган ҳаракатли ва миллий ўйинларининг роли катта эканлигини таъкидлаб ўтмоқчимиз. Шунинг учун халқимизнинг асрлардан-асрларга ўтиб келаётган ҳаракатли ва миллий ўйинларини авайлаб-асраб кейинги авлодга етказиш йўлларини излаш, ишлаб чиқиш ва ҳаётга тадбиқ этиш бизнинг мақсадимиздир.

Миллий ўйинларини халқимизнинг бир неча йиллик маданий бойликлари ҳақидаги тасаввурларини маълум даражада кенгайтиради, ҳозирги ҳаётга сингдириш йўлларини бойитишга ёрдам беради.

Ҳаракатли ва миллий ўйинлар тарбиянинг энг таъсирчан усулларидан бўлиб, болаларда ақлий, ахлоқий ва нафосат тарбиясини биргаликда муваффақиятли амалга оширишда муҳим воситадир. Шунинг учун болалар ўйинларининг руҳи, табиати, савияси, иштирокчиларнинг ҳатти-ҳаракатлари каби жиҳатларига ҳам эътибор бериш зарур. Болаларвақтини қизиқарли ва фойдали ўтказиш учун ҳаракатли ва миллий ўйинлардан фойдаланишда ҳам худди шу хусусиятларга эътибор бериш керак.

Болаларда қадриятларга муҳаббат уйғотиш, халқ анъаналарини авайлаб-асрашга ўргатиш кўп жиҳатдан ўзбек халқ миллий ўйинларидан унумли фойдаланишга боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуллаев У. «Халқ ўйинлари миллий спорт турларини тиклаш ва аҳолини жисмоний тарбиялашда улардан кенг фойдаланиш усуллари» мавзусига бағишланган жумҳурият миллий-амалий анжуманининг тезислари. 19-20 апрель 1991 йил 1-қисм, Б-12-15.
2. Бриль М.С. Опыт и перспективы применения подвижных игр в начальной подготовке юнных спортсменов / сб. Респ. научн. метод. Конф. по проблемам использования подвижных игр в физическое воспитание школьников. Минск, 1972, Б. 75-78.
3. Йўлдашева Р. Ўзбекхалқўйинлари – тарбиявийаҳамияти. Т., «Ўқитувчи», 1992 й.



**МУҲАНДИСЛИК ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ ЛОЙИХАВИЙ-
КОНСТРУКТОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШДА ПЕДАГОГИК
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ**

Шодиев Неъматжон Садирович

Тошкент ирригация ва кишлок хўжалигини
механизациялаш муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети, Бухоро табиий
ресурслари бошқариш институти
"Умумтехника фанлари" кафедраси ассистенти
n.shodiev1991@gmail.com

Аннотация. Мақолада муҳандислик йўналиши талабаларини лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлашда педагогик технологиялардан фойдаланиш, педагогик технологияларга қўйиладиган талаблар ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Таълим, мақсад, техник, инновация, прогрессив, ижобий, замонавий, ривожлантирувчи.

Инновацион таълим жараёнларининг асоси ва мазмуни инновацион фаолият бўлиб, унинг моҳияти педагогик жараёни янгилаш, анъанавий тизимга янги шаклланишларни киритишдан иборатдир. Таълим жараёнига янги шакллари киритиш янги педагогик технологияларнинг пайдо бўлишига ва такомиллаштирилишига олиб келди.

Муҳандислик йўналиши талабаларини лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлашда педагогик технологияларни танлаш бир қатор омилларга боғлиқ:

- таълим мақсадларининг устуворлиги;
- таълим мазмунининг ўзига хос хусусиятлари;
- талабалар таркиби ва уларнинг сони;
- таълим жараёнини техник жиҳозлашдаражаси, ягона таълим муҳитини яратиш.

Технология - ҳарқандайиш, маҳорат, санъатда қўлланиладиган техникалар мажмуасидир.

Педагогик технология эса - таълим ва тарбиянинг назарий асосланган жараёнларини қайта яратиш воситалари ва усуллари йиғиндиси бўлиб, улар таълим вазифаларини муваффақиятли амалга ошириш имконини беради. Педагогик технология - таълим шакллари, усуллари, воситалари, таълим методлари, воситаларининг махсус мажмуини белгиловчи психологик-педагогик муносабатлар мажмуи бўлиб, педагогик жараёнинг ташкилий-услубий қуроли ҳисобланади.

Ҳар қандай педагогик технология айрим асосий методологик талабларга ва технологик мезонларга жавоб бериши керак, масалан:

1. Концептуаллик. Ҳар бир педагогик технология маълум бир илмий концепцияга эга бўлиши керак, унда таълим мақсадига эришиш учун фалсафий, психологик, дидактик ва ижтимоий-педагогик асослар мавжуд.

2. Мувофиқлик. Педагогик технология тизимнинг барча хусусиятларига эга бўлиши керак: жараёнинг мантиқийлиги, унинг барча қисмларининг ўзаро боғлиқлиги, яхлитлиги.

3. Бошқариш имконияти. У таълим жараёнини режалаштириш, лойиҳалаш, босқичма-босқич диагностика, натижаларни тўғрилаш учун воситалар ва усуллари ўзгартириш имкониятини беради.

4. Самарадорлик. Замонавий педагогик технологиялар рақобат шароитида мавжуд бўлиб, маълум бир таълим стандартига эришишни кафолатлайдиган натижалар бўйича самарали ва ҳаражатлар бўйича оптимал бўлиши керак.

5. Қайта ишлаб чиқариш қобилияти. Педагогик технологияни бошқа бир хил таълим муассасаларида, бошқа фанлар томонидан қўллаш имкониятидир.

6. Кўргазмалилик. Унда аудиовизуал ва электрон технологиялардан фойдаланиш, шунингдек, турли дидактик материаллар ва оригинал кўргазмали қуролларни лойиҳалаш ва улардан фойдаланиш кўзда тутилади.

Шундай қилиб, муҳандислик йўналиши талабаларини лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлашда педагогик технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти халқаро стандартлар даражасида мутахассислар тайёрлаш сифатини таъминлашдан иборат. Ушбу



вазифани ҳал қилиш педагогик методларни ўзгартириш ва ўқитишнинг инновацион технологияларини жорий этиш билан амалга оширилади.

Муҳандислик йўналиши талабаларини лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлашда педагогик технологиялардан фойдаланиш технологик жараёнларни амалга оширишни талаб этади. Лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлашда муҳим технологикжараёнлар - штамповка, болғалаш, пресслаш, деталлар устигазанглатмайдиган бўёқ суртиш ва бошқалар ўргатилади. Бу жараёнларни амалда бажариш учун тегишли жихозлар ва асбоб-ускуналардан фойдаланилади. Ўқув устахоналари ҳамда саноат корхоналарининг ишлабчиқариш цехлари, участка ва лабораториялардан фойдаланиш, дарсларни экскурсия танишувтартибида ўтказиш яхши самара беради.

Ўқув устахоналардаги машғулотларда талабалар деталларнинг маълум белгилари - конструкция формалари, деталлар сиртинингўхшашлиги, уларни ишлаш тартиби ва бошқаларга қараб классификациялаш, уларорасидан типик намуналарни ажратиш ҳамда уларга ишлов беришнинг технологик жараёнларини ўрганадилар. Буларни талабалар учун тушунарли тарзда ифодалаш керак, чунки талабалар ўқув устахоналаридагиамалий фаолиятда бу жараёнларга дуч келадилар. Шунингдек, ҳар хил тўғрилагичлар, чеклагичлар, кондукторлар, шаблонлар, тузатгичлар, тешик очиш ва эгиш жихозлари, қисқичлар, чўзгичлар, штамплар, пайвандлаш жихозлари ва бошқалардан фойдаланадилар. Бу эса айрим деталлар ва буюмларни тайёрлаштехнологиясиданфойдаланишни назарда тутди. Бундай меҳнат жараёни талабаларда маънавий коникиш ҳосил қилади ва уларнинг фаолиятини рағбатлантиради, меҳнатга ижодий муносабатда бўлишни тарбиялайди.

Муҳандислик йўналиши талабаларини лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлашда педагогик технологиялардан фойдаланиш талабаларнинг техниктафаккурини ривожлантириш, деталлар, приборлар, техникмоделлар конструкцияларини ўзгартиришни кўзда тутадиган махсус топшириқлар,техник моделлар ва предметларнинг охирига етказилмаганконструкцияларини тамомлаш, технология жараёнларини такомиллаштириш учун муаммоли топшириқлардан фойдаланишни ўз ичига олади.

Бундай топшириқларнинг аҳамияти шундаки, улар талабаларга ижодиймустақилликни ва техникидрокни ҳамда техника, технология ва ўзи ишлаб чиққанконструктив ечимларга пухта ва танқидий муносабатини намоён қилиш имкониниберади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқувқўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2003. – 174 б.
2. Зеер Э.Ф. Диагностика профессионально-важных качеств личности инженера-педагога. Психологическая диагностика в инженерно-педагогическом вузе // Сб. науч. трудов. – Свердловск: СИПИ, 1989. –С. 44.
3. Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация. Монография. – Волгоград: Перемена, 2000. – 97 с.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000